

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” – MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**M.SH. MAMATKULOV**

**A.Z. TABAYEV**

**O‘rta maxsus professional ta‘limning**

**5.32.06.01–Buxgalteriya hisobi va audit kasbi boyicha**

# **BUXGALTERIYA HISOBI**

**o‘quv amaliyoti uchun**

## **O‘QUV QO‘LLANMA**

Toshkent 2022

**Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvifiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 18-noyabrdagi 8-son yig'ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 23-noyabrdagi 500-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va joriy etigan 5.32.06.01-Buxgalteriya hisobi va audit kasbi bo'yicha "Buxgalteriya hisobi" o'quv amaliyoti maxsus fani o'quv dasturi asosida tayyorlandi.**

**Mualliflar:** "TIQXMMI"-MTU, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dotsenti i.f.d. M.Sh. Mamatkulov

"TIQXMMI"-MTU, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida dotsenti A.Z. Tabayev

**Taqrizchilar:** TMI, "Byudjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasida dotsenti i.f.d. A.A. Ostonaqulov

"TIQXMMI"-MTU, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida mudiri, PhD., dots. A.K. Axmedov

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tishi munosabati bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zlarining mavjud mablag'laridan samarali foydalanishi, aktivlarni optimal boshqarish ularning oldidagi asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi. Chunki, korxonaning barqaror rivojlanishi uning mavjud mablag'larini samarali boshqarish va joylashtirishga bevosita bog'liqdir. Iqtisodiyotimizning muhim bo'g'ini hisoblangan korxonalar tizimida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tufayli korxonalar tizimining barqarorligi va qulay rivojlanishi uning faoliyatining huquqiy asosining qay darajada ta'minlanishiga bog'liqdir. SHu maqsadda, islohotlarning birinchi bosqichida korxonalar tizimining huquqiy asosi yaratildi va ikkinchi pog'onasi bo'lmish sanoat korxonalarining tashkil etilishi bilan sanoat korxonalarida ichki nazoratni shakllantirish hamda takomillashtirish maqsadida korxonalarda audit xizmatlari tashkil qilindi. Bundan asosiy maqsad, korxonalarining aktsiyadorlik jamiyati asosida tashkil qilinishi hamda barcha sanoat korxonalarida doimiy nazoratning yangi barcha bozor subhektlari talabiga javob beradigan shaklini joriy qilishdir.

Ushbu sharoitda O'zbekistonning globallashtirish jarayonlaridagi ishtiroki masalasi ko'p jihatdan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va ularga berilgan holisona baho, yahni auditorlik xulosasiga bog'liqdir. Konsolidatsiyalashgan hisobotni tuzilishi to'g'riligini isbotlash va tasdiqlash uchun auditorlar so'rov, kuzatuv, aktivlar va majburiyatlarni tekshirish, mahlumotlarni tasdiqlash, hujjatlarni tahlil qilish, qayta hisoblash, tahliliy muolajalar kabi umumqabul qilingan uslub va usullardan foydalanishlari zaruriy shartlardan hisoblanadi.

O'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi – o'rta maxsus professional ta'lim tizimida o'quvchi talabalarda buxgalteriya hisobiga oid bilimlarini amaliy jihatdan mustaxkamlash va amaliyotda qo'llay olishga, korxonalarda hisob tizimining tuzilmaviy bo'linmalarini tashkil etish bo'yicha amaliy malakaga ega bolish, boshlang'ich buxgalteriya hujjatlarini tuzish, hisob siyosati va mezonlarini ishlab chiqarish, hujjatlar, turli xarakterdagi iqtisodiy axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'quv qo'llanma o'rta maxsus professional ta'limning 5.32.06.01–Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi uchun mo'ljallangan, o'rta kasbiy ta'limning davlat ta'lim standartining talablarini hisobga olgan holda "Buxgalteriya hisobi" o'quv amaliyoti bo'yicha o'quv dasturiga asosan tuzilgan bo'lib, o'rta maxsus ta'limi o'quvchilari uchun asosiy o'quv amaliyoti adabiyoti sifatida ishlab chiqilgan. Shuningdek, o'rta maxsus ta'limi o'qituvchilari va iqtisodiyot yo'nalishidagi o'rta maxsus ta'limi o'quvchilariga va audit masalalari bilan shug'ullanuvchi boshqa shaxslarga bag'ishlangan.

**Mamatkulov M.Sh., Tabayev A.Z. "Buxgalteriya hisobi" o'quv amaliyoti uchun o'quv qo'llanma. – T.: 2022: - 126 b.**

## MUNDARIJA

Kirish .....	4
1-mavzu Buxgalteriya hisobini tashkil etish va unga qoyiladigan talablar. Moliyaviy hisob va hisobotning mohiyati.....	5
2-mavzu Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi.....	7
3-mavzu Investitsiyalar hisobi.....	15
4-mavzu Materiallar hisobi.....	18
5-mavzu Tayyor mahsulot(tovar, ish, xizmat)lar va ularning sotilishini hisobga olish.....	25
6-mavzu Pul mablag'lari va hisob kitoblar hisobi.....	30
7-mavzu Mehnat va ish haqini hisobga olish.....	42
8-mavzu Majburiyatlar hisobi.....	53
9-mavzu Xusuiy kapital hisobi.....	62
10-mavzu Moliyaviy natijalar hisobi.....	65
11-mavzu Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish.....	67
12-mavzu Boshqaruv hisobini tashkil etish. Xarajatlarni turkumlash va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.....	86
13-mavzu Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish.....	90
14-mavzu Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish..	98
15-mavzu Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish.....	120
Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati	125

## Kirish

Biznes sohasida ishlarni muvaffaqiyatli yuritish uchun buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy qonunlarini bilish zarur. Buxgalteriya hisobini o`rganish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bilim va mahoratga ega bo`lish imkonini beradi.

Buxgalteriya hisobi juda qadimda xo`jalik faoliyatining zaruriyati va ehtiyoji sifatida yuzaga kelgan. Buxgalteriya hisobi bozor iqtisodiyotini barpo etishda muhim o`rin egallaydi. Respublikamiz iqtisodiyotining xo`jalik yuritishida bozor sharoitlariga o`tish davrida uning ahamiyati beqiyos ravishda oshadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobini to`g`ri tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda mamlakatda mavjud bo`lgan buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimini bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiqlashtirish iqtisodiyotning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Buning uchun 2016 yil "Buxgalteriya hisobi to`g`risida"gi qonun va Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) ishlab chiqildi. Ular buxgalteriya hisobi shakllari va usullarini tanlashda korxonalarining mustaqilligini kengaytiribgina qolmasdan, hisob axborotining ishonchligi uchun ularning mas`uliyatini ham oshirmoqda. Buxgalteriya tizimini isloh qilishda xalqaro tamoyillarga asoslangan hisobvaraqlar rejasining qabul qilinishi navbatdagi muhim qadamlardan biri bo`ldi. Yangi hisobvaraqlar rejasi O`zbekiston Respublikasida faoliyat yuritib kelayotgan korxonalarining tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishishida asosiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobini isloh qilinishi, uning boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq hisobiga bo`lib o`rganishimizni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma`lumki, buxgalteriya hisobini bunday ajratilgan xolda tashkil qilish nafaqat korxonaning, boshqa manfaatdor tomonlarning istiqboli uchun xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich o`tish sharoitida nafaqat buxgalteriya hisobi tizimini isloh qilish, shuningdek bu sohada malakali kadrlar tayyorlash masalasiga ham jiddiy e`tibor berish zarur. Buning uchun iqtisodiy yo`nalishlardagi kasb-hunar kollejlarda "Buxgalteriya hisobi" yo`nalishida ta`lim olayotgan o`quvchilarni bu vazifani puxta o`rganishlariga qiziqtirish, nazariya bilan amaliyotni bog`lash maqsadida mukammal amaliy mashg`ulotlar olib borish zarur. Ushbu amaliy mashg`ulotlar qo`llanmasi kollej o`quvchilarining buxgalteriya hisobini amaliy o`rganishlarida yaxshi natija beradi. Unda hisob ishlariga oid barcha muomalalar yoritilishiga erishildi deb o`ylaymiz.

# MAVZU №1 BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH VA UNGA QOYILADIGAN TALABLAR. MOLIYAVIY HISOB VA HISOBOTNING MOHIYATI

## REJA:

- 1) Iqtisodiyotda buxgalteriya hisobining o`rni va vazifalari.
- 2) O`zbekiston Respublikasi hisob tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o`ziga xos tamoyillari.
- 3) Buxgalteriya hisobini tashkil qilishning xuquqiy va me`yoriy asoslari.
- 4) Markazlashgan va markazlashmagan buxgalteriya.
- 5) O`zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi hisob turlarining o`zaro bog`liqligi.
- 6) Buxgalteriya hisobini tashkil qilish etikasi.
- 7) Bosh buxgalterning huquq va majburiyatlari.
- 8) Hisob turlarida qo`llaniladigan o`lchov birliklari.
- 9) Hisob siyosati va uni buxgalteriya hisobini yuritishdagi o`rni.

**Quyidagi atamalarga izoh bering:** Hisobi tizimi, tezkor hisob, statistik hisob, buxgalteriya hisobi, o`lchov birliklari, natura o`lchov birligi, vaqt o`lchov birligi, pul o`lchov birligi, xo`jalik hisobiga qo`yiladigan talablar, buxgalteriya hisobi printsiplari, ta`minot jarayoni, ishlab chiqarish jarayoni, sotish jarayoni, buxgalteriya hisobi predmeti, xo`jalik mablag`lari, mablag`larning tashkil topish manbalari, xo`jalik jarayonlari, hujjatlashtirish, inventarizatsiya, schyotlar tizimi, ikkiyoqlama yozuv, baholash, kal`kulyatsiya, hisobot.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy faoliyatni boshqarishda hisob o`rni va ahamiyati nimalardan iborat?
2. Hisobning qanday turlari mavjud?
3. Hisob turlariga qanday talablar qo`yiladi?
4. Hisob turlarida qanday o`lchov birliklari qo`llaniladi?
5. Buxgalteriya hisobining rivojlanish tarixi to`g`risida nimalarni bilasiz?
6. Buxgalteriya hisobining printsiplarini ayting.
7. Buxgalteriya hisobining funktsiyalari nimalardan iborat?
8. Buxgalteriya hisobining vazifalari nimalardan iborat?
9. Buxgalteriya hisobining predmetiga ta`rif bering.
10. Buxgalteriya hisobining ob`ekti to`g`risida tushuncha bering.

## MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

**Zarur hujjatlar:** korxonaning ta`sis hujjatlari, xo`jalik muomalalarini ro`yxatga olish reestri, buxgalteriya balansi, aylanma qaydnoma

Talab qilinadi:

- 1) hisob ishlarini tashkil etilishini o`rganish.
- 2) korxonada rahbari va bosh buxgalterning huquqlari va majburiyatlarini bilish.
- 3) hisob yuritish siyosatini BXMS ga muvofiqligini ta`minlash.

### TEST SAVOLLARI:

1. Xo`jalik hisobini qanday tavsiflaysiz?
  - A. Xo`jalik faoliyatining rivojlanish istiqbollarini aniqlaydi
  - B. Xo`jalik faoliyatini miqdoriy aks ettiradi.
  - C. Xo`jalik faoliyatini sifat jihatdan tavsiflaydi.
  - D. Noto`g`ri javob yo`q.
  
2. Buxgalteriya hisobi - bu:
  - A. Subektning iqtisodiyoti to`g`risida miqdoriy (moliyaviy) ma`lumot beruvchi axborot tizimidir.
  - B. Iqtisodiy axborotni aniqlash, nazorat qilish, o`lchash va uzatish jarayonidir.
  - C. Cheklangan resurslardan foydalanish usulini tanlab olishda zarurdir.
  - D. Barcha javoblar to`g`ri.
  
3. Moliyaviy hisobot standartlariga bo`lgan ehtiyojga nima sabab bo`ldi?
  - A. Barcha xo`jalik yurituvchi sub`ektlar hisobotlariga bir xilda yondashishi.
  - B. Investitsiya qo`yishni osonlashtirish.
  - C. Buxgalteriya hisobi yuritishni osonlashtirish.
  - D. Hisobotlar tuzishni engillashtirish.
  
4. Xo`jalik mablag`lari va jarayonlarini qaysi o`lchov umumlashtirib kursatadi?
  - A. Natura o`lchovi.
  - B. Mehnat o`lchovi.
  - C. Pul o`lchovi.
  - D. Noto`g`ri javob yo`q.
  
5. Tezkor hisobning asosiy vazifasi nimadan iborat?
  - A. Kuzatilayotgan ob`ektlarda sodir bo`layotgan o`zgarishlarni tezlik bilan xabar qilish.
  - B. Ishlab chiqarishdagi salbiy voqealarga barham berish.
  - C. Ishlab chiqarishdagi ijobiy voqealarni ro`yxatga olish.
  - D. Boshqaruvga ma`lumot berish uchun.
  
6. Hujjatlashtirish - bu...
  - A. xo`jalik jarayonlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish
  - B. buxgalteriya hujjatlarini hisob registrlarida ro`yxatga olish
  - C. xo`jalik jarayonlarining maxsus hujjatlarda aks ettirish
  - D. hisobot tuzish

## **MAVZU № 2. ASOSIY VOSITALAR VA NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI**

### **REJA:**

1. Asosiy vositalar hisobining ahamiyati va vazifalari
2. Asosiy vositalarni turkumlash va baholash
3. Asosiy vositalar harakatini hujjatlashtirish
4. Asosiy vositalar harakatini hisobga olish
5. Asosiy vositalar amortizatsiyasi (eskirishi) zshchsobi
6. Asosiy vositalar ta'mirini hisobga olish
7. Nomoddiy aktivlar o'isobining vazifalari, ularni turkumlash va baholash
8. Nomoddiy aktivlar harakatini hisobga olish
9. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi (eskirishi) hisobi

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Asosiy vositalar hisobini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarni aytib bering?
2. Korxonalarda asosiy vositalarni turkumlashdan maqsad nima?
3. Asosiy vositalar hisobining harakati deganda nimani tushunasiz?
4. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari nechta va ular qanday hisoblanadi?
5. Asosiy vositalarni ta'mirlash qanday amalga oshiriladi va ularning hisobi qaysi schyotlarda hisobga olinadi?
6. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish qanday amalga oshiriladi?
7. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish bo'yicha moliyaviy natijalar qaysi schyotlarda hisobga olinadi?
8. Nomoddiy aktivlarning turkumlanishi hisob ishlariga qanday Samara beradi?
9. Nomoddiy aktivlardan foydalanish muddati qanday aniqlanadi?
10. Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash qanday amalga oshiriladi?
11. Nomoddiy aktivlar bo'yicha moliyaviy natijalar qanday aniqlanadi?

## **MAVZU YUZASIDAN TIPSHIRIQLAR**

### **Topsgiriq – 1. Asosiy vositalarni baholash va harakatlarini hujjatlashtirish**

*Zarur hujjatlar:* schot faktura, asosiy vositalar inventar kartochkasi, asosiy vositalarni sotib olish akti, ta'mirlangan asosiy vositalarning qabul qilish akti, asosiy vositalar inventarizatsiya qaydnomasini tuzish, inventarizatsiya natijalari akti, Talab qilinadi:

- 1) Asosiy vositalarni turkumlarga ajratish va ularga inventar raqam berish.
- 2) Asosiy vositalarni dastlabki hujjatlarda rasmiylashtirish.

3) Asosiy vositalar inventarizatsiyasini o`tkazish va natijalarni rasmiylashtirish.

Hisobga qabul qilingan asosiy vositalar har bir ob`yektiga inventar raqami beriladi. 001 dan 099 gacha inventar raqamlar binolarga, 100 dan 199 gacha inshootlarga, 200 dan 299 gacha uzatish qurilmalariga va xokazo shu tarzda davom etishi mumkin.

№	Asosiy vosita va nomoddiy aktiv turi	Inventar raqami
1.	Gaz pechi	0130001
2.	Gaz pechi	0130002
3.	Xamir qorish stanogi	0130003
4.	Kompyuter	0150101-103
5.	Ofis mebel va jixozlari	0140201-211
6.	Bino	0120301
7.	Ombor binosi	0120302

Korxonada asosiy vositalarni hisobga olishda quyidagi shakllarda foydalaniladi:  
AV- 1 shakl asosiy vositalarni qabul topshirish akti.

Dalolarnoma har bir ob`yekt uchun yozilib, buxgalteriyaga beriladi. U asosiy vositani hisobga olish kartochkalariga yozish uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

AV - 2 shakl ta`mir qilingan, tiklangan va takomillashtirilgan ob`yektlarni qabul qilish topshirish dalolatnomasi.

AV – 3 shakl asosiy vositani hisoblab chiqarish to`g`risida dalolatnoma.

AV – 4 shakl avtotransport vositalarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi.

AV – 6 shakl asosiy vositani hisobga olish inventar kartochkasi.

AV – 7 asosiy vositalar bo`yicha inventar kartochkalarining ro`yxati.

AV – 8 shakl asosiy vositalar xarakatini hisobga olish kartochkasi.

AV – 9 shakl asosiy vositalarni inventar ro`yxati.

Asosiy vositalar korxonaga kelib tushganda rahbar tayinlagan komissiya har bir ob`yekt bo`yicha alohida qabul topshirish dalolatnomasini tuzadi. Dalolatnomada ob`yekt tasnifi, turgan joyi, sotib olingan manbai, ishlab chiqilgan yoki qurilgan yili, ishga tushirilgan sana, obyektning sinov natijalari, uning texnik shartlarga muvofiqligi va boshqalar ko`rsatilishi lozim.

Korxonada asosiy vositalari inventarizatsiyasi quyidagi qaydnomada aks ettiriladi:

### inventarizatsiya qaydnomasi

moddiy qiymat liklar nomi	o`lchov birligi	bahosi	1.01.202__yga qoldiq	1.01.202__dan gacha aylanma		____ga qoldiq	Tabiiy kamayishi	Tabiiy kamayish dan so`ng	Inventarizatsiyada mayjud	Natija			
				Kirim	Chiqim					Kam		Ortiq	
										Miqdor	summa	miqdor	summa




O`tkazilgan inventarizatsiya natijasiga dalolatnoma tuziladi.

## Topsgiriq – 2. Asosiy vositalarning kirimi-chiqimi va amortizatsiyasini hisoblash

**Zarur hujjatlar:** amortizatsiya hisoblash qaydnomasi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ob`yektlari, hisoblab chiqilgan amortizatsiya ajratmalarini hisobga olish qaydnomasi (B – 1 shakl)

### Talab qilinadi:

1) Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash qaydnomasini tuzish.

2) Asosiy vositalar ta`miriga sarflangan xarajatlar smetasi va qabul topshirish aktini rasmiylashtirish.

O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan asosiy vositalarning amortizatsiya normalari quyidagicha belgilangan:

Asosiy vositalar guruhlari	Amortizatsiya normasi
Yengil avtomobillar, yo`llarda foydalaniladigan avtotraktor texnikasi, inventar va jixozlar, kompyuterlar, ma`lumotlarni qayta ishlash uskunalari	20%
Yuk avtomobillari, avtobuslar, sanoatning barcha tarmoqlari, temirchilik presslash uskunalari, qurilish uskunalari, qishloq xo`jalik mashinalari va uskunalari, ofis uchun mebel	15%
Temir yo`l dengiz va havo transporti vositalari, kuch quvvat beradigan mashina va uskunalari, issiqlik texnika uskunalari, elektr dvigatellar, elektr uzatish va aloqa qurilmalari, truboprovodlar	8%
Binolar, inshootlar va imoratlar	5%
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar	10%

Korxonalar asosiy vositalar ta'mirini pudrat yoki xo'jalik usulida ham amalga oshirishi mumkin. Pudrat usulida bajarilganda korxonalar ta'mirlash qurilish tashkiloti bilan pudrat shartnomasi tuzadi.

Xo'jalik usulida esa ta'mir o'z kuchi bilan amalga oshiriladi.

Ikkala usulda ham ta'mirlash xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlari hisobidan qoplanadi.

Asosiy vositalar ta'mirining ikki turi mavjud:

1. Kapital ta'mir

2. Joriy ta'mir

Mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tashkilotni boshqarish jarayonida foydalanilmayotgan asosiy vositalar obyektlarining qiymati buxgalteriya balansidan hisobdan chiqarilishi kerak.

Quyidagi xo'jalik muomalalari natijasida asosiy vositalar obyektlarining qiymati korxonalar aktivlari tarkibidan chiqib ketadi:

1. Realizatsiya qilinganda;

2. Foydalanish maqsadga muvofiq emasligi sabablariga ko'ra hisobdan chiqarilganda;

3. Chet korxonalar va shaxslarga bepul berganda;

4. Boshqa korxonalar ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shganda;

5. Kamomad va yo'qotish aniqlanganda.

## TEST SAVOLLARI

**“Asosiy vositalarni qayta baholash tartibi to'g'risida Nizom” qachon kuchga kirgan?**

\*2001 yil 1-mart

2001 yil 19-fevral

2000 yil 26- dekabr

2000 yil 19-fevral

**“Neksiya” avtomashinasiga 150000 so'mlik amortizatsiya hisoblangan.**

**Buxgalteriya provodkasini bering?**

\*Debet 9420

Kredit 0260

Debet 9020

Kredit 0220

Debet 9610

Kredit 0230

Debet 9430

Kredit 0250

**Asosiy ishlab chiqarishdagi stanoklarga eskirish hisoblandi. Ushbu muomalaga qanday provodka beriladi?**

\*Debet 2010 Kredit 0230

Debet 2510 Kredit 0130  
Debet 0130 Kredit 2310  
Debet 0230 Kredit 2110

**Asosiy vosita hisoblanishi uchun belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining nechi barobaridan ortiq bo'lishi kerak?**

\*50  
30  
40  
10

**Asosiy vositalar 5-Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga asosan qaysi baholarda baholanadi?**

\*Dastlabki baho, tugatish qiymati va qoldiq qiymat  
Faqat sotish bahosi va tiklash qiymati  
Faqat tugatish qiymati  
Qoldiq diymati

**Asosiy vositalar belgilari qanday?**

\*Bir yildan ko'proq foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'ladi va ishlab chiqarish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladi yoki ijaraga beriladi; sotish uchun mo'ljallanmaydi  
Bir yildan ko'proq foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'ladi va ishlab chiqarish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladi yoki ijaraga beriladi  
Narxi eng kam ish haqining 8 barobanni tashkil qiladigan predmetlar  
Bir yildan kam foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'ladi va ishlab chiqarish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladi

**Asosiy vositalar ishlab chiqarishga qatnashishi nuqtai nazaridan qanday turlarga bo'linadi?**

\*Ishlab chiqarishga taalluqli asosiy vositalari va noishlab chiqarishga taallukli asosiy vositalarga bo'linadi  
Ishlab chiqarishga taalluqli asosiy vositalari va nomoddiy aktivlarga  
Noishlab chiqarishga taalluqli asosiy vositalarga bo'linadi  
Ishlab chiqarishga taalluqli asosiy vositalari

**Asosiy vositalar korxonaga o'z hisobidan qurilganda yoki sotib olinganda qaysi schyotlarda aks ettiriladi?**

\*Debet 0810-0820  
Kredit 5110  
Debet 0100  
Kredit 9110  
Debet 0200  
Kredit 9110  
Debet 0110-0190

Kredit 0810-0820

**Asosiy vositalarga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?**

\*Ko'rp va to'shaklar

Bino

Inshoot

Kompyuter

**Asosiy vositalarni amortizatsiyasini to'g'ri chiziqli usulda qanday hisoblanadi?**

\*Boshlang'ich bahodan tugatish qiymati ayirilib foydali xizmat qilish muddatiga bo'lish orqali

Boshlang'ich bahodan jamg'arilgan eskirish ayirilib foydali xizmat qilish muddatiga bo'lish orqali

Bozor bahosidan tugatish qiymati ayirilib foydali xizmat qilish muddatiga bo'lish orqali

Bozor bahosidan qoldiq qiymat ayirilgan holda

**Asosiy vositalarni hisobga olishdagi AV-3 shakli qanday shakl?**

\*Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish dalolatnomasi

Asosiy vositalarni kirim qilish dalolatnomasi

Asosiy vositalarni topshirish dalolatnomasi

Asosiy vositalarni yuritish dalolatnomasi

**Asosiy vositalarni korxonada harakatlanishini qaysi hujjat orqali rasmiylashtiriladi?**

\*Yuk xati va inventar ro'yxatlari

Schyot faktura

Nakladnoy (yuk xati)

Aylanma qaydnoma orqali

**Asosiy vositalarni qayta baholash deganda nimani tushunasiz?**

\*Moliya vazirligi tomonidan berilgan indeks kopaytirilgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini kopaytirib 1-yanvar holatiga aniqlangan qiymat

Moliya vazirligi tomonidan berilgan indeks kopaytirilgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini kopaytirib 1-fevral holatiga aniqlangan qiymat

Moliya vazirligi tomonidan berilgan indeks kopaytirilgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini kopaytirib 1-mart holatiga aniqlangan qiymat

Moliya vazirligi tomonidan berilgan indeks kopaytirilgan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini kopaytirib 1-dekabr holatiga aniqlangan qiymat

**Asosiy vositalarni sintetik hisobi qaysi schyotda aks ettiriladi?**

\*0110-0199

0810-0819

0210-0299

0310-0399

**Asosiy vositalarni sintetik hisobi qaysi schyotda aks ettiriladi?**

\*0110-0199

0810-0890

0200

0300

**Asosiy vositalarning dastabki qiymatini o'zgartirish nimaga asoslanadi?**

\*Hukumat qarori bilan

Korxonalar qarori bilan

Firma rahbari hohishi bilan

Bosh buxgalter ko'rsatmasiga asosan

**Asosiy vositalarning qanday maqsadda foydalanishi va qanday ishlarni bajarishiga qarab, qanday turlarga bo'linadi?**

\*Inshootlar, imoratlar mashina va asbob-uskunalar, o'tkazuvchi moslamalar.

Mashina va asbob-uskunalar

Faqat inshootlar

Faqat imoratlar

**Asosiy vositalarning qoldiq qiymati qanday aniqlanadi?**

\*Boshlang'ich qiymatdan eskirish qiymati ayriladi

Eskirish qiymatidan boshlang'ich qiymatdan ayriladi

Sotib olish shartnoma bahosi va ishga tushirish harajatlari yigindisi

Sotib olingandagi qiymati orqali

**Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini yuritishning necha shakli bor?**

\*4

3

2

5

**Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarga ish haqi hisoblandi. Ushbu muomala qanday provodka bilan aks ettiriladi?**

\*Debet 2010

Kredit 6710

Debet 2110

Kredit 6720

Debet 2310

Kredit 6710

Debet 2010

Kredit 6720



## MAVZU № 3. INVESTITSİYALAR HISOBI

### REJA:

1. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning mohiyati va ularni hisobga olishning vazifalari
2. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni turkumlash va baholash
3. Investitsiyalarni diskontlash
4. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar harakatini hisobda aks ettirish

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Uzoq muddatli qo'yilmalar hisobini yuritishda qaysi me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi??
2. Uzoq muddatli qo'yilmalar deganda nimani tushunasiz?
3. Qimmatli qog'ozlar ham uzoq muddatli qo'yilmalar tarkibida hisobga olinadimi?
4. Uzoq muddatli qo'yilmalar qaysi schyotlarda hisobga olinadi?
5. Uzoq muddatli qo'yilmalar bo'yicha olingan daromadlar qaysi schyotlarda hisobga olinadi?
6. Uzoq muddatli qo'yilmalar bo'yicha ko'rilgan zararlar qaysi schyotlarda hisobga olinadi?
7. Qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha olinadigan daromad va zararlar qanday hisobga olinadi?
8. Korxonadan sotib olgan aksiyalari bo'yicha dividend to'lovlari buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi?
9. Daromad sifatida olinayotgan dividend to'lovlaridan soliq undiriladimi?
10. Aksiyalarning nominal va sotish baholaridagi farqlar qaysi schyotlarda hisobga olinadi?

### MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

«Bo`ston» aksiyadorlik jamiyatining 20... yil uchun xo'jalik muomalalarini hisobga olish daftari.

№	Muomalalar mazmuni	Asos bo'luvchi hujjat	Summa	Schyot aloqasi.	
				Dt	Kt
	Korxonadan yiliga 20% foyda keltiradigan obligatsiya sotib oldi.	Yuk xati, guvohnoma	50000		
	Sotib olingan obligatsiyalar bo'yicha 20% daromad hisoblandi.	Bux. ma'lumot.	10000		
	Obligatsiyalar bo'yicha hisoblangan foiz hisob - kitob schyotimizga o'tkazildi .	Hisob schyotidan ko'chirma	10000		
	Obligatsiyalarning bir qismi qaytarildi .	Yuk xati	30000		
	Qaytarilgan obligatsiyalarning puli hisob - kitob schyotimizga o'tkazildi.	Hisob schyotidan ko'chirma	30000		
	Toshkent konserva zavodi OXJ dan aktsiya sotib olindi nominal qiymat bo'yicha	Hisob schyotidan ko'chirma	160000		
	Olingan aktsiya uchun yillik dividend hisoblandi	Bux ma'lumot.	40000		

**Vazifa:**

1. Muomalalarga buxgalteriya o'tkazmalari berilsin.
2. Quyidagi shaklda oborot vedomosti tuzilib schyotlarga tarqatilsin.

Schyot №	Schyotlar nomi	Oy boshiga saldo		Oborot		Oy oxiriga saldo	
		Dt	Kt	Dt	Kt	Dt	Kt
	JAMI						

3. Qimmatli qog'ozlar harakati bo'yicha dastlabki hujjatlarni rasmiylashtiring.
4. Qimmatli qog'ozlar harakat vedomostini rasmiylashtiring.

(so'mda)

№	Qimmatli qog'ozlar nomi	Boshlang'ich qoldiq		Aylanmasi		Oxirgi qoldiq	
		Dt	Kt	Kirim	Chiqim	Dt	Kt

5. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar hisobi bo'yicha muomalalar 10 jurnal orderga tushirilsin.

## Jurnal order №10

Dt \ Kt	Kt	№0610	№0620	№0630	№0640	№0690	Jami
	Hammasi						

**TEST SAVOLLARI****Aksiyalardan olinadigan dividend ko'rinishidagi daromad bu-?**

- \*Moliyaviy faoliyat daromadlari
- Operatsion faoliyat daromadlari
- Sotishdan daromad
- Emission daromad



### **Kapital qo'yilmalar deb nimaga aytiladi?**

\*Sub'ekt tomonidan yangi asosiy vositalarni qurish, sotib olish, rekonstruktsiya qilish, foydalanilmayotgan asosiy vositalar ob'ektlarining quvvatlarini kengaytirishga aytiladi

Tegishli vaqtda markaziy bank tomonidan belgilangan valyutaning so'mga nisbatan qiymatidir

Malum davr ichida korxonalar, tarmoq yoki butun xalq xo'jaligining ishchi va xizmatchilarga beriladigan pul

Faqat kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, modernizatsiyalashga qilingan xarajatlar yigindisi

### **Obligatsiyalar qachon nominal qiymatida chiqariladi?**

\*Bozor stafkasi bilan shartnoma stafkasi teng bo'lganda

Bozor stafkasi shartnoma stafkasidan 5% ga yuqori bo'lganda

Bozor stafkasi shartnoma stafkasidan 2% ga yuqori bo'lganda

Obligatsiyalar har doim nominal qiymatida chiqariladi

### **Qimmatbaho qog'ozlarning hisob qiymati?**

\*Hozirgi vaqtda tashkilotning balansida aks ettiladigan qiymatdagi summa

Qimmatli qog'ozlar birlamchi joylashtirishdagi sotish narxi bilan blankadagi qiymati orasidagi farqi

Qimmatli qog'ozlarning bozorda sotiladigan bahosi

Qimmatli qog'oz blankasida ko'rsatilgan qiymat

### **Qimmatbaho qog'ozlarning likvidatsiya bahosi?**

\*Tugatilayotgan tashkilotlarning mulklarini sotishdan olinadigan pullari bir aksiyaga to'g'ri keladigan qiymati

Qimmatli qog'ozlarning bozorda sotiladigan bahosi

Qimmatli qog'oz blankasida ko'rsatilgan qiymat

Hozirgi vaqtda tashkilotning balansida aks ettiladigan qiymatdagi summa

### **Qimmatbaho qog'ozlarning emissiya qiymati nima?**

\*Qimmatli qog'ozlar birlamchi joylashtirishdagi sotish narxi bilan blankadagi qiymati orasidagi farqi

Qimmatli qog'ozlarning bozorda sotiladigan bahosi

Qimmatli qog'oz blankasida ko'rsatilgan qiymat

Hozirgi vaqtda tashkilotning balansida aks ettiladigan qiymatdagi summa

### **Qimmatbaho qog'ozlarning kurs qiymati?**

\*Qimmatli qog'ozlarning bozorda sotiladigan bahosi

Qimmatli qog'ozlar birlamchi joylashtirishdagi sotish narxi bilan blankadagi qiymati orasidagi farqi

Qimmatli qog'oz blankasida ko'rsatilgan qiymat

Hozirgi vaqtda tashkilotning balansida aks ettiladigan qiymatdagi summa

## **Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar buxgalteriya hisobining qaysi schyotlarida aks ettiriladi?**

\*0600

0900

0700

0800

### **Veksel -**

\*Bu ma'lum muddat ichida ma'lum summani to'lash (foiz bilan) bo'yicha majburiyatni aks ettiruvchi qimmatli qog'ozdir

Ma'lum davr davomida iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida boshqa sub'ektning faoliyatiga qo'yilgan kapitalni bildiradi

Bu ma'lum muddat ichida ma'lum summani to'lash bo'yicha majburiyatdir

Bu aktivni ishlatish bo'yicha bir tomondan ikkinchi tomonga beriladigan huquq

## **MAVZU № 4. MATERIALLAR HISOBI**

### **REJA**

1. Ishlab chiqarish zahiralari hisobining vazifalari, ularni turkumlash va baholash
2. Materiallar harakatini xujjatlarda rasmiylashtirish
3. Materiallarning ombordagi hisobini tashkil qilish
4. Materiallarning kirimini buxgalteriyada hisobga olish
5. Transport-tayyorlov xarajatlarini hisobga olish
6. Materiallar sarflanishini buxgalteriyada hisobga olish
7. Xarid qilingan materiallar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish
8. Ishlab chiqarish zahiralari inventarizatsiya qilish

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Materiallar qanday baholarda baholanadi?
2. FIFO va AVEKO usullarining mazmunini aytib bering?
3. Materiallar hisobini oldiga qo'yilgan vazifalar nimalardan iborat?
4. Materiallar kirimi qanday hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi?
5. Materiallarni xo'jalik ichidagi xarakati qanday rasmiylashtiriladi?
6. Materiallarni sarflanishi qanday hujjatlashtiriladi?
7. Materiallarni operativ-saldo usulining asosiy prinsiplari nimadan iborat?
8. Omborlarda materiallar qanday registrlarda yuritiladi?
9. Materiallarni hisobga olish uchun qanday schyotlar belgilangan?
10. Materiallar hisobi qaysi jurnal-order va qaydnomalarda yuritiladi?

## MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

### Topshiriq – 1. Materiallarni baholash va ularning harakatini hujjatlashtirish

*Zarur hujjatlar: limit zabor kartasi, kirim orderi, talabnoma, inventarizatsiya qaydnomasi, akt, yuk xati, ombor daftari, inventar kartochka, ishlab chiqarish zaxiralari, va tayyor mahsulotni hisobga olish qaydnomasi,*

Talab qilinadi:

- 1) Korxonadagi mavjud materiallarni turkumlanishi va ularga nomenklatura raqamini berish.
- 2) Korxonadagi mavjud material turlariga inventar kartochka ochish.
- 3) Kirim orderini, talabnoma, limit zabor kartalari, ombor daftarini yuritilishini o`rganish.
- 4) Kirim orderini, talabnoma, limit zabor kartalarini rasmiylashtirish.
- 5) Ombor daftarini yuritish.
- 6) Materiallar chiqimini FIFO usulida hisoblash.
- 7) Ishlab chiqarish va tayyor mahsulotni hisobga olish qaydnomasini rasmiylashtirish.
- 8) Materiallar inventarizatsiyasi natijalarini qaydnomada aks ettirish va akt tuzish.

Xom-ashyo — maxsulotning moddiy asosini tashkil etadigan mehnat ashyolaridir. Masalan, paxta, ruda va boshqalar;

Materiallar — xom-ashyoga ta`sir etish uchun qo`llaniladigan va mahsulotga ma`lum iste`mol xususiyatini berishda foydalaniladigan vositalardir. Ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini tashkil etadi, ya`ni gazlama, charm, metall va xokazolar;

Sotib olinadigan yarim tayyor maxsulotlar va butlovchi qismlar — ma`lum darajada ishlov bosqichidan o`tgan, lekin xali pirovard maxsulot darajasiga yetkazilmagan maxsulotlar;

Yoqilg`i — ko`mir, benzin, torf, gaz hamda neft maxsulotlari;

Ehtiyot qismlar — mashina va jixozlarni tuzatishda, ishdan chiqqan qismlarni almashtirishda qo`llaniladigan mashina va mexanizmlarning detal, agregat va qismlari;

Qurilish materiallari — bevosita qurilish va montaj ishlari jarayonida, qurilish qismlarini tayyorlashda, bino va inshootlarning alohida konstruktsiya va qurilmalarini ko`tarishda va qurib tugatishda foydalaniladi. Ularga qurilish uchun zarur bo`ladigan yogoch-taxta, shifer, mix va boshqalar kiradi;

Idish va idish materiallari — turli material va maxsulotlarni o`rash, joylashtirish, tashish xamda saqlashda ishlatiladigan buyumlardir. Ularga yogoch, karton, metall dan yasalgan, shisha va boshqa idishlar kiradi;

Inventar va xo`jalik anjomlari — ushbu guruhda korxonada xo`jalik faoliyatida ishlatiladigan inventar, arzon baxrli va tez eskiruvchi buyumlar kiradi;

Boshqa tomonga qayta ishlashga berilgan materiallar — korxonada balansida turgan, qayta ishlash uchun boshqa korxonaga berilgan materiallar. Ularga, asosan, qayta

ishlash uchun o'zga korxonaga berilgan o'simlikchilik, chorvachilik xamda o'rmon xo'jaligi maxsulotlari kiradi;

Boshqa materiallar — yuqoridagi satrlarda ko'rsatib o'tilmagan boshqa materiallar kiradi. Ularga chiqitlar, tuzatilmaydigan braklar, metallom va boshqalar misol bo'ladi.

Korxonaning omborida quyidagi materallar turkumlari mavjud:

№	Material turi	O'lchov birligi	Nomenklatira raqami
1.	Un I – navli	Kg	1010123
2.	Tuz	Pachka	1010228
3.	Tuxum	Dona	1010316
4.	Margarin	Kg	1010410
5.	Sut	Litr	1010508
6.	Tvorog	Kg	1010605
7.	Jem	Kg	1010725
8.	Shakar	Kg	1010800
9.	Droja	Pachka	1010902
10.	Mayiz	Kg	1010115
11.	Mak	Kg	1010251

## Topshiriq - 2 Materiallarning buxgalteriyadagi hisobi.

**Zarur hujjatlar:** *limit zabor kartasi, kirim orderi, talabnoma, inventarizatsiya qaydnomasi, akt, yuk xati, ombor daftari, inventar kartochka*

*Talaab qilinadi:*

- 1) Omborning boshlang'ich hujjatlarini rasmiylashtirish
- 2) Xo'jalik jarayonlarini ombor daftari aks ettirish
- 3) Ombor xo'jaligi hisobini to'g'ri yuritilishini tekshirish

Materiallarni omborga ombor mudiri yoki omborchi qabul qiladi. Keltirilgan materiallar mol yetkazib beruvchining hujjatlari bilan muvofiq bo'lsa, omborchi

**M-4 shakldagi kirim orderini** tuzadi. Kirim operatsiyalari soni kam bo'lganda, mol yetkazib beruvchining hujjatiga muhr qo'yishga ruxsat etiladi. Haqiqatda kirim qilingan materiallar va yuborilgan hujjatlar orasida tafovut aniqlansa, materiallarni qabul qilish dalolatnomasi tuziladi. Bu dalolatnoma mol yetkazib beruvchi yoki boshqa manfaatdor bo'lmagan korxonada vakillari ishtirokida tuziladi. Dalolatnoma tuzilganda kirim orderi rasmiylashtirilmaydi.

Ombordan sexlarga sarflash uchun beriladigan materiallarga **limit – zabor kartalari, talabnoma hamda yuk xatlar** rasmiylashtiriladi. Materiallarning bir marotaba, kam takrorlanadigan xarajat qilinishi talabnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu hujjat iste'molchi sex, bo'lim va uchastkalar tomonidan rasmiylashtiriladi.

Ombordan sexlarga materiallar muntazam berib borilsa, u holda limit – zabor kartalari qo'llaniladi.

**Limit – zabor kartasi** korxonaning ishlab chiqarish yoki reja bo'limi tomonidan yoziladi. Unda shu sex yoki uchastkaga berilishi lozim bo'lgan material ma'lum bir oylik cheklangan miqdori ko'rsatilgan bo'ladi. Cheklangan me'yor sex yoki uchastkaning ishlab chiqarish rejasi va shu sex yoki uchastkada materiallarni sarflash me'yori asosida aniqlanadi. Limit zabor kartasi ikki nusxada yoziladi. Bir nusxasi

omborga, ikkinchisi esa sexga beriladi. Materiallar berilgandan so`ng limit kartasining sex nusxasiga ombor mudiri imzo qo`yadi, sex xodimi omborchining nusxasiga o`z imzosini qo`yadi. Limit yetmagan taqdirda limitdan tashqari materiallar talabnoma bilan rasmiylashtiriladi. Materiallarni ichki ko`chishida ya`ni ombordan- omborga yoki sexdan sexga berilishida qabil qilish yuk xatlaridan foydalaniladi. Ombor xodimlariga materiallarni boshqa hujjatlar bo`yicha yoki og`zaki so`rash, turli xatlar orqali berish ta`qiqlanadi.

**KIRIM ORDERI № \_\_\_\_\_**

Muomala turi	Ombor	Yetkazib beruvchi		Korrespondent hisobvaraqa		Kod (nomenklatura raqami)
O`lchov birligi		Miqdori		Narxi	Summasi	Ombor kartotekasi bo`yicha tartib raqami

Qabul qildi \_\_\_\_\_ Topshirdi \_\_\_\_\_

**LIMIT ZABOR KARTASI**

limit zabor karta № «___» _____ 200__y	Sex		Mahsulot nomi		bir oyga limit	
					soni	imzolar
ombor	nomenklatura raqami	materiallar nomi	navi	hajmi	o`lchov birligi	narxi
sana	talab qilindi		berildi			
	soni	sex boshlig`I imzosi	soni	oy boshidan	imzolar	
					oldi	berdi

Tashkilot

**YUK XATI № \_\_\_\_\_**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 200\_\_yil

Ta`minotchi \_\_\_\_\_

Iste`molchi \_\_\_\_\_

Asos mazmuni \_\_\_\_\_

	Xom ashyo va materiallarning nomi	O`lchov birligi	Baho	Miqdori	Summa
1.					
2.					
3.					

Yuboruvchi Qabul qildi Ruxsat  
yoki yoki berdi:  
Ta'minotchi \_\_\_\_\_ Iste'molchi \_\_\_\_\_

АПТТІК ІІІ-3794-105

FIFO usulida materiallar chiqiminin hisobga olish.

Sotib olingan sana	O'lchov birligi va miqdori	Bir birligining bahosi(so`m)	Umumiy qiymati (so`m)

### Topshiriq – 3. Material qiymatliklarning inventarizatsiyasi

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga muvofiq tovar moddiy boyliklarning ayrim turlarini baholash va hisobga olish uchun quyidagi usullardan birini qo'llash tavsiya etiladi: FIFO, LIFO va AVECO.

FIFO usuli birinchi navbatda sotib olingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotilgan yoki sarflangan tovarlar tannarxiga o'tkazilishi lozim degan taxminga asoslangan.

LIFO usuli oxirgi navbatda olingan tovarlar tannarxi birinchi navbatda sotilgan yoki sarflangan tovarlar qiymatini aniqlashda qo'llaniladi.

AVECO o'rtacha baholash usuli tovar moddiy boyliklarni o'rtacha narxlariga asoslangan. O'rtacha narx sotilish yoki sarflanishiga mo'ljallangan barcha tovarlar qiymatini mazkur tovarlar miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor maxsulotlarni hisobga olish qaydnomasini tuzilishi, oborotlar yig'indisi va aylanmasini aniqlanishi.

### Inventarizatsiya qaydnomasi

Moddiy qiymatliklar nomi	O'lchov birligi	Bahosi	1.01.200__yga qoldiq	1.01.200__dan _____gacha aylanma		_____ga qoldiq	Tabiiy kamayishi	Tabiiy kamayish dan so'ng	Inventarizatsiya da mavjud	Natija			
				Kirim	Chiqim					Kam		Ortiq	
										Miqdor	Summa	Miqdor	Summa

O'tkazilgan inventarizatsiya natijasiga dalolatnoma tuziladi.

Dalolatnoma 2 nusxada tuzilib bir nusxasi moddiy javobgar shaxsga beriladi, ikkinchi nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi.

Agar tekshirish natijasida kamomad aniqlansa buning uchun moddiy javobgar shaxs mas'ul bo'ladi va kamomad miqdori undiriladi.



## TEST

**Quyidagi usullardan qaysi biri hozir amaliyotda qo'llanilmaydi?**

\*LIFO

FIFO

AVECO

Donalab baholash

**Tovar-moddiy zaxiralarni baholashning necha xil usuli bor?**

\*4

2

3

5

**Baholashning realligi nima?**

\*Xo'jalik mablag`lariga kiritilgan mehnat sarflarining haqiqiy miqdorini pul ko'rsatkichida aks ettirishdir

Korxonada buxgalteriyasini baholash

Xo'jalik yurituvchi subektlar haqida ma'lumotlarni baholash

Xo'jalik mablag`larini baholash

**Buxgalteriya hisobini soddalashtirilgan shaklda yuritish tartibi qaysi**

**Buxgalteriya hisobi milliy standati bilan tartibga solinadi?**

\*20

15

19

24

**Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tayyor mahsulotlarga qanday provodka beriladi?**

\* Debet 2810

Kredit 9390

Debet 2810

Kredit 9210

Debet 2810

Kredit 9110

Debet 2810

Kredit 2010

**Inventarizatsiya vaqtida pul kam chiqsa...?**

\*Moddiy javobgar shaxsdan undirib olinadi

Korxonada hisobidan to'lanadi

Ombor mudiri hisobidan undiriladi

Moddiy javobgar shaxsdan undirib olinadi, korxonada hisobidan to'lanadi, ombor mudiri hisobidan undiriladi



## MAVZU №5. TAYYOR MAHSULOT (TOVAR, ISH, XIZMAT)LAR VA ULARNING SOTILISHINI HISOBGA OLISH

### REJA:

1. Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) va uni hisobga olish vazifalari
2. Tayyor mahsulotni baholash va uning nomenklaturasi
3. Tayyor mahsulotning ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi
4. Tayyor mahsulotni jo'natishni hisobga olish
5. Sotish xarajatlari hisobi
6. Tayyor mahsulot sotishning analitik va sintetik hisobi
7. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish
8. Dargumon qarzlari bo'yicha rezervlar hisobi
9. Konsignatsiya muomalalari hisobi

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Mahsulot sotish hisobi oldiga qanday vazifalar qo'yilgan?
2. Mahsulotlar nomenklaturasi nima va undan qanday maqsadda foydalaniladi?
3. Mahsulotni yuklab jo'natishda qanday hujjatlar qo'llaniladi?
4. Franko-joy nimani bildiradi va uning qanday turlarini bilasiz?
5. Tayyor mahsulotni omborga qanday provodka bilan qabul qilinadi?
6. Tayyor mahsulot yuklab jo'natilganda buxgalteriya hisobida qanday hisobga olinadi?
7. Sotilgan mahsulotlar bo'yicha aksiz va qo'shilgan qiymat solig'iga qanday provodka beriladi?
8. Mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lgan sotish xarajatlariga qanday aniqlanadi?
9. Dargumon qarzlari zaxirai qanday tashkil etiladi va nimaning hisobidan?
10. Konsignatsiya bo'yicha sotilgan tovarlar buxgalteriya hisobida qanday rasmiylashtiriladi?

### MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

*Zarur hujjatlar:* yuk xati, schot faktura, ishonchnoma, shartnoma

#### Talab qilinadi:

- 1) Tayyor mahsulot va uni xaqiqiy tannarxda kiringa olish;
- 2) QQSni hisoblash;
- 3) Tayyor mahsulotni xaridorlarga jo'natish hujjatlarini rasmiylashtirish;

Korxonalarda tayyor mahsulot hisobi vazifalarini aniq tashkil qilish maqsadida ular omborda va buxgalteriyada hisobga olib boriladi. Tayyor mahsulotni omborga qabul qilishda topshirish nakladnoyi yoki mahsulot topshirish vedomostlarida rasmiylashtiriladi. Bu hujjatlarda topshiruvchi sex, topshirilish muddati, mahsulotning nomenklatura raqami, uning soni, reja tannarxi va tegishli moddiy javobgar shaxslarning imzolari ko'rsatiladi. Qabul hujjatlari asosida buxgalteriya mahsulot topshirish qaydnomasini yuritadi. Mahsulotni ombordan ketishini rasmiylashtiruvchi hujjat asosida xaridorlarga jo'natilayotgan tayyor mahsulotga schot faktura, to'lov talabnomasi yoziladi va tovar oluvchi korxonaga xizmat qiluvchi bankka topshiriladi.

Tayyor mahsulotlarni xaridorlarga jo`natish xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu shartnomalarda jo`natilgan mahsulot muddati, miqdori, qiymati va hisob kitob shartlari ko`rsatilgan bo`ladi. Jo`natilgan mahsulot schot faktura chiqim orderi va boshqa hujjatlarda rasmiylashtiriladi.

Qo`shilgan qiymat solig`i – 20%lik miqdordagi stavkalar bo`yicha QQS ga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va sotuvchi korxonalar tovarlarni sotilishi va ularga doir summalar yuzasidan qo`llaniladigan stavkalar bo`yicha alohida hisobni yuritishi va hisob – kitob hujjatlarida ko`rsatishi lozim. Xaridor korxonaga sotib olgan tovari yoki xizmati uchun pulni QQS bilan birga to`laydi. Shundan so`ng mol yetkazib beruvchi budjetga bu mablag`ni to`lab beradi. Jo`natilgan mahsulot uchun hisoblangan QQS summasi schot fakturada ko`rsatilgan bo`ladi.

### **Shartnoma № \_\_\_\_\_**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 200\_\_yil Toshkent shahar

“ \_\_\_\_\_ ”AJ rahbari \_\_\_\_\_ bir tomondan  
“Iste`molchi” “ \_\_\_\_\_ ” savdo do`koni  
rahbari \_\_\_\_\_ ikkinchi tomondan “Iste`molichi” sifatida ushbu  
shartnomani tuzdilar.

#### **Shartnomaning mazmuni**

1. Is`temolchini tayyor bulochka mahsulotlari bilan o`z vaqtida ta`minlash
2. Ta`minotchi tomonidan yetkazib berilgan mahsulotlarni o`z vaqtida qabul qilib olish

#### **Mahsulotni yetkazib berilishi**

Ta`minotchi kunlik belgilandan mahsulit miqdorini AJ transport vositasida zarur hujjatlar bilan birgalikda savdo do`koniga yetkazib berishni zimmasiga oladi.

#### **Mahsulot sifati**

1. Taminotchi mahsulotni iste`mmolchiga yetkazib berilayotgan mahsulotning sifat kafolatini o`z zimmasiga oladi.
2. Savdo do`koniga yetkazib berilgan va mas`ul xodimlar tomonidan qabul qilib olingan mahsulotning saqlanishi va sifatiga mas`ul emas.

#### **Hisob – kitoblar va mahsulot narxi**

1. Hisob – kitoblar belgilangan tartibda naqd pulsiz hisob – kitoblar orqali amalga oshiriladi.
2. Iste`molchi tomonidan o`z vaqtida yetkazib berilmagan debitorlik qarzi tegishli tartibda undiriladi.
3. Ta`minotchi tomonidan yetkazib berilayotgan mahsulot narxi xarf – xarajatlarga bog`liq ravishda belgilanadi va schot – fakturada QQS bilan ko`rsatiladi.

#### **Tomonlarning yuridik manzillari**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

M.O` (imzo) M.O` (imzo)

YUK XATI / HISOBVARAQ – FAKTURA № \_\_\_\_\_  
 “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 200\_\_ YIL DAN

Molni yuklab io`natish hujjatlaiga “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 200\_\_ yil

Sotuvchi _____				Haridor _____			
Manzil _____				Manzil _____			
Telefon _____				Telefon _____			
Hisobvaraq raqami _____				Hisobvaraq raqami _____			
Shahar _____				Shahar _____			
<b>Bank nomi</b>		<b>MFO</b>		<b>Bank nomi</b>		<b>MFO</b>	
№	Mahsulot (ish, xizmat)lar nomi	O`lchov birligi	Soni	Narxi	Umumiy summasi	QQS summasi	Umumiy qiymat
Jami to`lovga :							

Rahbar \_\_\_\_\_ Oldim \_\_\_\_\_

Bosh buxgalter \_\_\_\_\_ (xaridor yoki vakolatli shaxs familiya, ismi imzosi)

MO` Ishonchnoma bo`yicha № \_\_\_\_\_

Molni berib yubordim \_\_\_\_\_ “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 200\_\_ yil

## TEST SAVOLLARI

**Jo'natilgan tayyor mahsulotlar tannarxi aks ettirildi.**

\*Debet 9110

Kredit 2810

Debet 9110

Kredit 2910

Debet 9010

Kredit 2810

Debet 2810

Kredit 9110

**Mahsulot sotishdan sof tushum qaysi schyotda hisobga olinadi?**

\*9010 kreditida

9010 debetida

4010 debetida

4010 kreditida

**Mahsulot sotishdan tushgan mablag' kirim qilingan. Ushbu muomalaga qanday provodka beriladi?**

\*Debet – 5110

Kredit – 4010

Debet – 9110

Kredit – 5110

Debet – 5110

Kredit – 6010

Debet – 5110

Uchastka boshliqlari, masterlar

### **Qurilishda asosiy materiallar sarfi to'g'risida hisobot**

M- 29 shakl

M- 11 shakl

M- 8 shakl

M- 4 shakl

## **MAVZU № 14 Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining hususiyatlari.**

### **REJA**

1. Qishloq xo'jalik korxonalarining buxgalteriya hisobi sub'ekti sifatidagi tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

2. Qishloq xo'jalik korxonalarida hisob siyosatining xarakterli xususiyatlari

3. Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarmog'i o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir tomondan tabiiy omillar, ikkinchi tomondan ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xosligi avvalo ishlab chiqarish jarayoni yoki jonli organizmlar bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish sikli uzoq davom etadi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy vazifasi aholiga oziq-ovqat, sanoat tarmoqlari uchun xom-ashyo Yetishtirib berishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi uchta asosiy tarmoqqa bo'linadi:

1. Dehqonchilik;

2. Chorvachilik;

3. Sanoat ishlab chiqarish.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun jamoada yordamchi xo'jaliklar tashkil qilinadi. Qurilish bo'limi, suv bilan ta'minlash stantsiyasi,

mashina traktor parki va hokazolar. Qishloq xo'jaligi korxonalarida Yetishtirilgan mahsulotni qayta ishlash uchun sanoat tipidagi korxonalar tashkil qilinadi. Bularga, sutni qayta ishlash, go'shtni, unni qayta ishlash, paxta tozalash va hokazolar kiradi. Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Qishloq xo'jaligi korxonasiga mo'ljallangan topshiriqni bajarilishini nazorat qilish;
2. Qishloq xo'jaligi zaxiralari, texnikasi va mahsulotlarinisaklash va ulardan foydalanishni nazorat qilish;
3. Qishloq xo'jalik mahsulotlari chiqimi va kirimini o'zvaqgida hisobga olish;
4. Ishlab chiqarish xarajatlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini to'g'ri kalkulyatsiya qilish;

Qishloq xo'jaligi tarmog'i o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib bir tomondan tabiiy omillar ikkinchi tomondan ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarishning o'ziga xosligi avvalo ishlab chiqarish jarayoni yoki jonli organizmlar bilan bog'liq bo'lib ishlab chiqarish sikli uzoq davom etadi. Qishloq xo'jaligida ishiab chiqarishning asosiy vazifasi aholida oziq ovqat sanoat tarmoqlari uchun hom ashyo Yetishtirib berishdan iboratdir. Qishloq xo'jaligiga 3ta asosiy tarmoqqa bo'linadi

1. Dehqonchilik
2. Chorvachilik
3. Sanoat ishlab chiqarish

Bundan tashqari qishloq rivojlanish uchun jamoa yordamchi xo'jaliklar tashkil qilinadi. Qurilish bo'limi suv bilan ta'mirlash stantsiyalari mashina traktor parki qishloq xo'jalik korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlarini qayta ishlash uchun sanoat tipidagi korxonalar tashkil qilinadi. Bularga sutni qayta ishlash, go'shtni qayta ishlash paxta tozalash uni qayta ishlash va xokazolar kiradi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Qishloq xo'jalik korxonalariga mo'ljallangan topshiriqni bajarilishining nazorat qilish.
2. Qishloq xo'jaligi zaxiralari texnikasi va mahsulotlarining saqlash va ulardan foydalanish.
3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxi to'g'ri kalkulyatsiya qilish.
4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari chiqimi va kirimi o'z vaqtida hisobga olish.
5. Qishloq xo'jaligi korxonalarida faoliyatning moliyaviy natijalarini aniqlash.
6. Buxgalteriya hisobining ishlari ilg'or usullarini qo'llash.
7. Davriy va yillik hisobotlarini o'z vaqtida aniq to'g'ri tuzib topshirish.

Dehqonchilik xarajatlarini «Xarajatlar to'g'risida»gi nizomga asosan quyidagi xarajat moddalari bo'yicha yuritiladi.

1. Materiallar-urug', ko'chat o'g'itlar, yoqilg'i.
2. Mehnatga haq to'lash xarajatlari.
3. Ijtimoiy sug'urta.

4. Asosiy vositalarining amortizatsiyasi.
5. Dexqonchilik va boshqa xarajatlar.
6. Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining moliyaviynatijalarini aniqlash;
7. Buxgalteriya hisobi ishlarining ilg'or usullarini qo'llash;
8. Davriy va yillik hisobotlarini o'z vaqtida aniq, to'g'ri tuzish va topshirish.

Dehqonchilik xarajatlari «Xarajatlar to'g'risidagi Nizom»ga asosan quyidagi xarajatlar moddalari bo'yicha yuritiladi:

1. Materiallar — urug', ko'chat, o'g'itlar, yoqilg'i;
2. Mehnatga haq to'lash xarajatlari;
3. Ijtimoiy sug'urta;
4. Asosiy vositalarning amortizatsiyasi;
5. Boshqa xarajatlar.

Dehqonchilik qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, quyidagi tarmoqlarga bo'linadi:

1. ***O'simlikchilik;***
2. ***Sabzavotchilik;***
3. ***Bug'doychilik;***
4. ***Polizchilik;***
5. ***Uzumchilik;***
6. ***Gulchilik;***
7. ***O'rmonchilik;***
8. ***O'tloqchilik;***
9. ***Urug'chilik.***

O'simchilik xarajatlari va olingan mahsulotlarning analitik hisobi jamoaning shaxsiy schyoti 83-ASK shaklida yuritiladi. Bu shaxsiy schyotda ma'rumotlar bo'limlar bo'yicha, xarajat moddalari va olingan mahsulotlarning yil davomida reja tannarxida yilning oxirida haqiqiy tannarxda hisobga olinadi. 83-ASKda jamlangan ma'lumotlar 10-jurnal orderga ko'chiriladi.

O'simchilik xarajatlari va yetishtirilgan mahsulotning sintetik hisobi 2010-«Asosiy ishlab chiqarishning» «Dehqonchilik» subschyotida hisobga olinadi.

Schyotning debetida mahsulotni yetishtirish uchun qilingan xarajatlar, kreditida esa yetishtirilgan mahsulotning yil davomida reja tannarxidagi qiymati va yilning oxirida reja tannarxi bilan haqiqiy tannarxi o'rtasidagi farq summasi aks ettiriladi. Schyotning debetidagi qoldiq yil boshidagi va oxiridagi to'lanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini aks ettiradi.

O'simchilikda mahsulot tannarxining aniqlash ob'ekti bo'lib, asosiy mahsulotlar (don, paxta, meva-sabzavot) va qo'shimcha mahsulotlar (go'zapoya, somon, ko'kpoya) hisoblanadi. Mahsulot tannarxini hisoblashdan oldin xarajatlarni aks ettiruvchi schyotlar sinchiklab tekshiriladi. O'simchilikda olingan asosiy, yondosh va qo'shimcha mahsulotlar tannarxini hisoblash va kalkulyatsiya qilish nizomiga asosan asosiy va qo'shimcha mahsulotlarni tenglashtirish koeffitsiyenti, 1 s chori — 0,08 koeffitsiyent birligiga teng.

1 s bug'doyning tannarxini topish uchun shartli bug'doyga aylantirish, umumiy olingan mahsulotdan ularning salmog'i aniqlanadi. Qilingan xarajatlar shu salmoqqa ko'paytirilib 100 ga bo'linadi va chori hamda bug'doy bo'yicha qilingan xarajatlar aniqlanadi.

Aniqlangan xarajatlarni olingan mahsulotlarning miqdoriga bo'linsa, 1 s mahsulotning tannarxi topiladi.

Chorvachilik tarmog'i sanoatni xom ashyo bilan, aholini esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydi.

Chorvachilik tarmog'i quyidagilardan tarkib topgan:

1. *Sut va go'sht vo'nalishidagi*
2. *Qo'ychilik;*
3. *Chorvachilik;*
4. *Yilqichilik;*
5. *Parrandachilik;*
6. *Asalarichilik;*
7. *Quyunchilik;*
8. *Ipakchilik;*
9. *Mo'ynachilik.*

Chorvachilik xarajatlari aktiv kalkulyatsion 2010-«Chorvachilik» subschyotida hisobga olinadi. Analitik hisobi tarmoqlar bo'yicha 83-ASK shaklida xarajat moddalari bo'yicha hisobga olinadi.

Chorvachilikka qilingan xarajatlar va olingan mahsulotlarni hisobga olishda qo'llaniladigan hujjatlar quyidagilardan iborat:

1. Yosh mollarni hisobga olish jurnali;
2. Amortizatsiyani hisoblash vedomosti;
3. Sotilgan sutni hisobga olish jurnali;
4. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini kiringa olish kundaligi;
5. Tug'ilgan naslni kiringa olish dalolatnomalari.

83-ASK shaxsiy schyotiga har oyda yuqoridagi hujjat ma'lumotlaridan ko'chiriladi.

Shaxsiy schyotlar quyidagi bo'linmalardan iborat:

	Muomalalar mazmuni	Schyotlar	
		DT	KT
1	Chorva mollari uchun yem-xashaklar sarflandi.		
2	Chorvachilikdagi ishchilarga ish haqi hisoblandi.		
3	Chorvachilikdagi asosiy vositalar uchun eskirishlar hisoblandi.		
4	Dehqonchilikdan chorvachilikka qushimcha mahsulotlar berildi.		
5	Chorvachilikdan chiqqan chiqindilar dehqonchilik ekinlari uchun sarflandi.		
6	Chorvachilikdagi ishchilarning ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar hisoblandi.		
7	Chorvachilikdan ish chorva mollari olindi.		
8	Chorvachilikdan tayyor mahsulot olindi.		

1. Xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
2. Asosiy, yondosh va qo'shimcha mahsulotlar chiqimi;
3. Jami ma'lumotlar 1 oylik va yil boshidan ko'rsatibboriladi.

Yakuniy ma'lumotlar 10-jurnal orderga ko'chiriladi.

2010-«Chorvachilik» subschyotining boshqa schyotlar bilan aloqasi quyidagicha:

Chorvachilik mahsulotlari tannarxini aniqlash. Yil oxirida chorvachilik mahsulotlari tannarxini aniqlashdan oldin 2010-schyoti tekshiriladi, ya'ni har bir chorva turi, guruhi bo'yicha umumiy xarajat va yil davomida olingan mahsulotlarning umumiy summasi aniqlanadi. Bunda xarajatlar hisobi ob'ekti bo'yicha to'g'ri taqsimlanishi kishi, soat, ozuqa kunlari va ozuqa birliklari hisobga olinishi zarurdir. Chorvachilikda asosiy mahsulot (sut, jun, tuxum, tirik vazn va boshqalar) tannarxi hisoblash ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Qo'shimcha mahsulotlarga, go'ng, parranda pati, nobud bo'lgan hayvonlardan olinadign nimta go'sht va boshqalar kiradi.

### **NAZORAT SAVOLLAR:**

1. Qishloq xo'jalik korxonalarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish bo'yicha nechta turga bo'linadi?
2. Qishloq xo'jalik korxonalarida hisob siyosati qanday yuritiladi?
3. Fermer xo'jaligida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli nechta shakllari bo'yicha yuritish mumkin?
4. Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari?

### **MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR**

**Dehqonchilikda xo'jalik jarayonlariga buxgalteriya aloqalarini tuzish. Schotlarga tarqatish va oxirga qoldiqni aniqlash. Aylanma qaydnoma tuzish.**

**Zarur hujjatlar:** xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish daftari, aylanma qaydnoma

**Talab qilinadi:**

- 1) xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish daftarini tuzish;
- 2) muomalalarni schotlarga tarqatish;
- 3) aylanma qaydnoma tuzish;

<b>№</b>	<b>Operatsiya mazmuni</b>	<b>Summa</b>	<b>Debet</b>	<b>Kredit</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<b>1</b>	Dehqonchilik brigadalarining ishlab chiqarish hisobotlariga muvofiq quyidagilar sarflandi. <i>1. paxtachilikka:</i> a chigit b mineral o'g'it. V zaxarli moddalar. Jami: <i>2. Bug'doychilikka.</i> A mineral o'g'it b zaxarli moddalar Jami: <i>3. Kelgusiyil qosili uchun mineral o'g'itlar sarflandi.</i> <i>1-operatsiyanig jami</i>	600000 1150000 200000 1950000  1400000 600000 2000000 1600000 5550000		
<b>2.</b>	Ishlab chiqarish hisobotlariga muvofiq dehqonchilik tarmog'ida ishlayotgan xodimlarga mehnat haqi hisoblandi. a) paxtachilik bo'yicha b) bug'doychilik bo'yicha v) mukofot uchun <i>2-operatsiyaning jami:</i>	4500000 2500000 900000 7900000		
<b>3.</b>	Dehqonlarni ish haqlariga nisbatan 25% ta'til haqi bo'yicha jamg'arma fondiga mablag'lar ajratildi; (summasi aniqlansin) a) paxtachilik bo'yicha b) bug'doychilik bo'yicha v) kelgusi yil hosili bo'yicha <i>3-operatsiyaning jami:</i>	1125000 625000 225000 1975000		
<b>4.</b>	Dehqonchilik sohasidagi boshqarav xodimlariga ish xaqi hisoblandi.	700000		
<b>5.</b>	Xodimlarning mehnat haqlariga nisbatan 25% ijtimoiy sug'urtaga ajratma hisoblandi (summani aniqlang).	175000		
<b>6.</b>	Otboqar Alimovga ta'til haqi hisoblandi	42500		
<b>7.</b>	Chirchiq kimyo kombinatiga qo'yilgan akkreditiv hisobidan mol yuboravchilardan mineral o'g'it olingan.	200000		

8.	Topshirilgan sut uchun Chirchiq sut zavodining kombinatidan pul hisob kitob sho'tiga o'tkazildi.	4000000		
9.	Go'shtga topshirilgan 2 bosh sigirlar uchim go'sht kombinatidan pul hisob kitob sho'tiga o'tkazildi.	777000		
10.	Limitlashtirilgan chek daftarchasiga hisob-kitob schyotidan pul ajratildi.	100000		
11.	Mashina traktor parkining bevosita xarajatlari bajarilgan ish xajmi (etalonga) mutanosib taqsimlanib quydagi tarmoqlarga o'tkaziladi: 1). <i>Amortizatsiya ajratmasi:</i> a. paxtachilikka b. bug'doychilikka <b>1-jami</b> 2). <i>Tamirlash xarajatlari.</i> a. paxtachilik bo'yicha b. bug'doychilik bo'yicha <b>2-jami</b> <i>11-operatsiyaning jami:</i>	1250000 1250000 2500000 1535150 1535150 3070300 5570300		
12.	O'g'it sotib olish uchun bankdan olingan qisqa muddatli kredit bo'yicha % hisoblendi.	200000		
13.	Dala shiyponini ta'mirlash uchun qurilish materiallari sarflandi.	300000		
14.	Quydagi obyektlardan foydalanayotgan asosiy vositalar uchun eskirish hisoblendi. a. paxtachilikka b. bug'doychilikka v. ishlab chiqarish ahamiyatidagi vositalar	350000 264000 102000 716000		
15.	Avtotransportning ko'rsatgan xizmati ishlab chiqarish xarajatlari salmog'iga	200000		
16.	Dala shiyponini ta'mirlash uchun ta'mirlash fondiga mablag' ajratildi.	400000		
17.	Mol yetkazib beravchilardan chigit va mineral o'g'it, zahar moddalar qabul qilindi.	410000		
18.	Umumxo'jalik xarajatlari asosiy ishlab chiqarishga olindi.	9650000		
19.	Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari asosiy ishlab chiqarishga olindi.	42500		





## Topshiriq – 2. Dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirish.

### F – 18a, 83 – ASK

**Zarur hujjatlar:** taqsiimlash vedomosti F – 18a, ASK – 83

**Talab qilinadi:**

- 1) dexqonchilikda sarflangan jami xarajatlarni aniqlash;
- 2) dexqonchilikda sarflangan xarajatlarni taqsimlash;
- 3) F-18a, va ASK -83 ni rasmiylashtirish;

Bu forma asosan xarajatlarni taqsimot bazasi va vedomosti bo'yicha taqsimlashga qaratilgan.

Dexqonchilik bo'yicha xarajatlar olinganda asosan dexqonchilikda xizmat qiluvchilarga mehnat haqi ajratmalari ya'ni ish haqi ko'rsatilgan, bunda:

- a) paxtachilikda xizmat ko'rsatuvchilarga - 4500000 so'm;
- b) bug'doychilikda xizmat ko'rstuvchilarga - 2500000 so'm;
- v) kelgusi yil xarajatlari - 900000 so'm belgilangan.

Bundan tashqari ijtimoiy sug'urta, xarajat qilingan o'g'itlar, asosiy vedomostlarni asrash uchun qilingan xarajatlar va boshqa xarajatlar ketma-ketlikda berilgan.

Taqsimot bazasining salmog'ini topish taqsimot baza moddalari bo'yicha alohida jamini 100 ga ko'paytirib, masalan paxta bo'yicha jami 1 1954275 m" 100 ko'paytirib hammasining jami, ya'ni paxta+bug'doy+kelgusi yil xarajatlari=jamiga bo'linadi, bunda paxta=salmog'i 52,9% kelib chiqadi.

Boshqa moddalari ham shunday ishlanib, salmog'i aniqlanadi.

Umumiy xarajatlarni taqsimotida esa, quyidagicha ish bajariladi, ya'ni paxta bo'yicha taqsimot bazasining salmog'i 52,9 ni boshqa xarajatlarga ko'paytirib 100 ga bo'linadi. Bu jarayon quyidagicha sodir bo'ladi:

$$52,9 \times 1594125 / 100 = 843292 \text{ so'm}$$

Shunday qilib Forma-83 ASK xarajatlarini taqsimlash vedomosti bo'lib xizmat qiladi va buxgalteriyaga o'zining katta hissasini qo'shadi.

### DEXQONCHILIK ISHLAB CHIQRISH HARAJATLARI VA OLINGAN MAXSULOTLAR BO'YICHA HISOBOT

#### FORMA 83 ASK

№	TAQSIMOY BAZA MODDALARI	XARAJATLARNI TAQSIMLASH VEDOMOSTI			JAMI
		PAXTA	BUG'DOY	KELGUSI YIL HOSILI	
1	2	3	4	5	6

**Topshiriq – 3. Chorvachilikda xo`jalik jarayonlariga buxgalteriya aloqalarini tuzish. Schotlarga tarqatish va oxirgi qoldiqlarni aniqlash. Aylanma qaydnoma tuzish.**

**Zarur hujjatlar:** xo`jalik muomalalarini ro`yxatga olish daftari, aylanma qaydnoma

**Talab qilinadi:**

- 1) xo`jalik jarayonlarini ro`yxatga olish;
- 2) xo`jalik jarayonlarini schotlarga tarqatish;
- 3) aylanma qaydnoma tuzish;

№	Muomila mazmuni	Summa	Debet	Kredit
1.	Ishlab chiqarish hisobotlariga rnuvofiq chorvachilik tarmog'ida ishlayotgan xodimlarga ish haqi hisoblandi. a) Yirik shoxli mollarni boqishda band bo'lgan xodimlarga b) Bulturgi g'o'najinlarni boquvchi xodimlarga c) Bulturgi erkak buzoqlarni boquvchi xodimlarga d) 2yoshdan katta bo'lgan g'o'najinlarni boquvchilariga e) Bo'rdoqiga boqillayotgan mollarni boquvchilariga <i>1-operatsiyaning jami:</i>	18000000 3000000 4000000 3500000 4500000 33000000		
2. 3.	Chorvadorlarning ish haqi, hajmga nisbatan 5% ta'til fondiga mablag' ajratildi. a) Yirik shoxli mollarni boqishda band bo'lgan xodimlardan. b) Bulturgi g'o'najinlarni boquvchi xodimlardan. c) Bulturgi erkak buzoqlarni boquvchi xodimlardan. d) 2 yoshdan katta bo'lgan g'o'najinlarni boquvchilaridan. e) bo'rdoqiga boqillayotgan mollarni boquvchilardan. <i>2-operatsiyaning jami:</i>	900000 150000 200000 175000 225000 1650000		
	Xodimlarni mehnat xaqclariga nisbatan ijtimoiy sug'urtaga 40% mablag' hisoblandi: a) Yirik shoxli mollarni boqishda			

3	band bo'lgan xodimlardan. b) Bulturgi g'o'najinlarni boquvchi xodimlardan. c) Bulturgi erkak buzoqlarni boquvchi xodimlardan. d) 2 yoshdan katta bo'lgan g'o'najinlarni boquvchilaridan. e) bo'rdoqiga boqillayotgan mollar boquvchilaridan. f) chorvadagi boshqa xodimlardan. <i>4-operatsiyaning jami:</i>	7200000 1200000 1600000 1400000 1800000 2400000 15600000		
4.	Chorvachilik sohasidagi boshqaruv xodimlarga (ferma) ish haqi hisoblandi.	6000000		
5,	Xayvonlarni guruhdan guruhga o'tkazish asosan 50 bosh bulturgi g'o'najinlarni 2 yoshdan katta g'onajinlar guruhga o'tkazildi, tirik vazni 700 kg (reja tarmarxi) (2ta buxgalteriya o'tkazmasi).	5550000 5550000		
6.	Bo'rdoqiga boqilayotgan 1 bosh qoramol xo'jalik xodimiari ehtiyoji uchun so'yishga berildi. tirik vazni 250 kg (reja tarmarxi) (2ta provodka)	277500 277500		
7.	Ferma bo'yicha tuzilgan ishlab chiqarish hisobotiga binoan chorva mollarni boqish uchun em-xashak sarflandi. a) Sog'in sigirlarga b) Bulturgi g'o'najinlarga c) bulturgi erkak buzoqlarga d) 2 yoshdan katta bo'lgan buzoqlarga e) bo'doqiga boqilayotgan mollarga <i>7-operatsiyaning jami:</i>	1340000 1900000 2100000 1500000 3200000 10040000		
8.	Yuqumli kasalliklarni oldini olish maqsadida qoramollarni muhofaza qilish uchun dori darmonlar sarflandi. a) Sog'in sigirlarga b) Bulturgi g'o'najinlarga c) bulturgi erkak buzoqlarga d) 2 yoshdan katta bo'lgan buzoqlarga e) bo'doqiga boqilayotgan mollarga <i>8-operatsiyaning jami:</i>	300000 475000 525000 375000 550000 2225000		
9.	Normativ bo'yicha belgilangan miqdorda sut sog'ish apparatlarini ta'mirlash uchun ta'mirlash ondi tashkil etildi.	8500000		

10.	Aktga asosan yo'qolgan 1 bosh bulturgi erkak buzoqlar hisobdan chiqarildi. Tirik vazni 1.5 sentner (reja tannarxi)	166500		
11.	Sut sog'ish apparatlarini ta'mirlash uchun Baxmal tuman ishlab chiqarish korxonasi hisob-kitob schotiga pul o'tkazib berish hisobga olindi.	8500000		
12.	Yo'qolgan 1 bosh buzoqning qiymatini molboqardan 2 hissa qilib undirib olishga qaror qilindi.	166500		
13.	Sut sog'ish apparatlarini ta'mirlash uchun Baxmal tuman ta'mirlash ishlab chiqarish korxonasi hisob-kitob schotiga pul o'tkazildi.	8500000		
14.	Molboqarning mehnat haqidan yo'qolgan buzoqning qiymati ushlab qolindi.	166500		
15.	Mollarni tortish vedomostiga asosan yosh va bo'rdoqiga boqilayotgan mollarning ortgan vazni kirim qilindi. a) Bulturgi g'o'najinlar bo'yicha 150s reja tannarxi; b) Bulturgi erkak buzoqlar bo'yicha 170s reja tannarxi; c) 2yoshdan katta bo'lgan g'o'najinlar bo'yicha 150s reja tannarxi; d) Bo'rdoqiga boqilayotgan katta yoshdagi molar bo'yicha 90s reja tannarxi. <i>15-operatsiyaning jami:</i>	16800000 19040000 8960000  10080000  54880000		
16.	Sigirlardan quydagi mahsulotlar olindi: a) Sut - 7270 reja tannarxi 300s 70t b) Buzoqlar - 552s reja tannarxi tirik vazni 2000 so'm. <i>16-operatsiyaning jami:</i>	2186089  1104000 3290089		

17.	Chorva mollardan olingan go'ng limonariya xo'jaligiga sotildi. 1 tonna reja tannarxi 1500 so'm a) sigiriardan olingan 100 tonna b) bulturgi g'o'najinlar 80 tonna c) bulturgi erkak buzoqlardan olingan 120 tonna d) 2 yoshdan katta g'o'najinlardan olingan 60 tonna e) bo'rdoqiga boqilayotgan katta yoshdagi mollardan 70 tonna. <i>17-operatiyaning jami:</i>	150000 120000 180000 90000 105000 645000		
18.	Tug'ilgan buzoqlarni boqish uchun sut sarflandi.	560000		
19.	Kasalligi tufayli nobud bo'lgan 4 bosh yangi tug'ilgan buzoqlar aktga asosan hisobdan chiqarildi. (2ta buxgalteriya o'tkazma)	63200 63200		
20.	Qoramollarga to'shama sifatida yog'och aralash sehidan olingan chiqindi reja tarmarxida sarflanadi: a) sigirlarga b) bulturgi g'o'nojinlarga c) bulturgi erkak buzoqlarga d) 2 yoshdan katta g'o'nojinlarga e) Bo'rdoqiga boqiladigan mollarga <i>20-operatsiyaning jami:</i>	300000 180000 220000 20000 120000 1020000		
21.	Chorvachilikda foydalanilayotgan asosiy vositalar bo'yicha eskirish hisoblandi. Fermaning bino va inshootlardan, asbob-uskunalaridan.	2200000		
22.	Chorvachilik fermasining binoni ta'mirlash uchun materiallar sarflandi.	1900000		
23.	Hisobobt davri oxirida buxgalteriya hisobi hisob-kitob asosan chorvachilik-dagi umum ishlab chiqarish xarjatlari chorva turlari asosida taqsimlandi. a) Sigirlarga b) Bulturgi buzoqlarga c) Bulturgi g'o'najinlarga d) 2 yoshdan katta bo'lgan g'o'najinlarga e) bo'rdoqiga boqilayotgan mollarga <i>23-operatsiyaning jami:</i>	3150000 744000 594000 618000 894000 6000000		







## Chorvachilik bo'yicha xarajatlarni taqsimlash vedomosti.

№	Taqsimot baza moddalari	Xarajatlarni taqsimlash vedomosti					Jami
		Yirik shoxli mollar	Bulturgi g'unojinlar	Bulturgi erkak buzoqlar	2 yoshdan katta g'unojinlar	Bo'rtoqi mollar	
1.	Mehnat haqi ajratmalari.	18000000	3000000	4000000	3500000	4500000	33000000
2.	Ijtimoiy sug'urta.	7200000	1200000	1600000	1400000	1800000	13200000
3.	Yem-hashak.	1340000	1900000	2100000	1500000	3200000	10040000
4.	Dori-darmonlar.	300000	475000	525000	375000	550000	2225000
5.	To'shama.	300000	180000	220000	20000	120000	840000
6.	Umumishlab chiqarish.	3150000	744000	594000	618000	894000	6000000
7.	Boshqa xarajatlar.	8460000					
8.	<i>Jami:</i>	38750000	7499000	9039000	7413000	11064000	73765000

1. Yirik shoxli mollar =  $38750000 \times 100 / 73765000 = 52,5$
2. Bulturgi g'unojinlar =  $7499000 \times 100 / 73765000 = 10,2$
3. Bulturgi erkak buzoqlar =  $9039000 \times 100 / 73765000 = 12,3$
4. 2 yoshdan katta g'unojinlar =  $7413000 \times 100 / 73765000 = 10,1$
5. Bo'rdoqi mollar =  $11064000 \times 100 / 73765000 = 14,9$

1. Yirik shoxli mollar -  $52,5 \times 8460000 / 100 = 4441500$
  2. Bulturgi g'unojinlar -  $10,2 \times 8460000 / 100 = 862920$
  3. Bulturgi erkak buzoqlar -  $12,3 \times 8460000 / 100 = 1040580$
  4. 2 yoshdan katta g'unojinlar -  $10,1 \times 8460000 / 100 = 854460$
- Bo'rdoqi mollar -  $14,9 \times 8460000 / 100 = 1260540$

### **Topshiriq – 5. Xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlariga buxgalteriya aloqalarini tuzish.**

**Zarur hujjatlar:** xo'jalik jarayonlarini ro'yxatga olish daftari, aylanma qaydnoma

#### **Talab qilinadi:**

- 1) xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish;
  - 2) xo'jalik jarayonlarini schotlarga tarqatish;
  - 3) aylanma qaydnoma tuzish;
- Xo'jalik muomalalarini ro'yxatga olish daftari

№	Operatsiya mazmuni	Summa	Debet	Kredit
1.	Xo'jalikning xizmat tarmog'ida band bo'lgan hodimlarga mehnat haqi hisoblandi. a) bolalar bog'chasi xodimlariga b) xomomxona xodimlariga v) choyhonachilarga 1-operasiyaning jami:	1700000 900000 600000 3200000		
2.	Xo'jalikning xizmat tarmog'ida band bo'lgan hodimlarga mehnat haqiga nisbatan ijtimoiy soliq. a) bolalar bog'chasi xodimlariga b) xomomxona xodimlariga v) choyhonachilarga 2-operasiyaning jami:	680000 360000 240000 1280000		
3.	Xo'jalikning xizmat tarmog'ida band bo'lgan hodimlarga mehnat haqiga nisbatan belgilangan miqdorada ta'til haqi rezerv qilindi. a) bolalar bog'chasi xodimlari bo'yicha b) xomomxona xodimlari bo'yicha. v) choyxonachilarga 3-operasiyaning jami:	85000 45000 30000 160000		
4.	Chuqursoy ko'mir bazasidan 100 torma ko'mir sotib olindi, lekin puli to'lanmadi.	300000		

5	Mol yetkazib beruvchi korxonadan quyidagi mahsulotlar olindi, lekin puli to'lanmadi. a) guruch b) shakar c) saryog' d) quruq choy e) mahsulotlar ustiga qo'yib sotilgan qo'shimcha qiymat to'lanadigan soliq summasi <i>5-operasiyaning jami;</i>	500000 300000 150000 100000 237500  1287500		
6.	Mol yetkazib beruvchi korxonadan olingan mahsulotlar qiymatli hisob-kitob schyotidan to'landi.	1287500		
7.	Ombordan qurilish materiallari quyidagi maqsadlar uchun sarflandi. a) bolalar bog'chasi uchun. b) xammomxona uchun. v) choyhona uchun. <i>7-oj)erat\$iyaningJami:</i>	60000 180000 6000 246000		
8.	Bolalar bog'chasida taom tayyorlash uchun ombordan quyidagi mahsulotlar sarflandi. a) guruch b) shakar v) sariyog' g) quruq choy d) go'sht Reja tannarxida 2000 so'mdan 30kg Sotish bahosida 3000 so'mdan 30kg <i>8-operatsiyaning jami:</i>	150000 150000 60000 50000 60000 90000  560000		
9.	Baxmal tuman ishlab chiqarish korxonasiga quyidagi ob'yektlarning ta'mirini o'tkazish yuklandi: a) bolalar bog'chasini tamirlash uchun b) xommomxonani tamirlash uchun v) choyxonani tamirlash uchun <i>9 - operatsiyaning jami:</i>	32000 21000 911000 70000		

10.	Choyhona extiyoti uchun ombordan quruqchoy sarflandi.	40000		
11.	Bolalar bog'chasini asrash uchun xo'jalikning kasaba uyushmasi tomonidan hisob-kitob schyotiga pul o'tkazib berildi.	1500000		
12.	Xo'jalikning xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlariga ombordan arzon va tez eskiruvchi buyumlar foydalanish uchun berildi.	250000		
13.	Ota-onalarning bolalar bog'chasiga farzandlari uchun to'laydigan pullari hisoblandi.	612000		
14.	"O'zbeknavo" nomli kichik korhona tuman bolalar bog'chasini asrash uchun xayriya sifatida pul o'tkazib berildi.	1000000		
15.	Kassa kirim orderiga asosan xo'jalikning kassasiga quydagi xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlaridan naqd pul olindi. a) ota-onalardan. b) xommom mudirlaridan. v) choyxonachilardan. <i>15-operatsiyaning jami:</i>	612000 830000 123000 1565000		
16.	Bolalar bog'chasini asrash	316800		
17.	xarakatlari hisobot davri oxirida maqsadli moliyalash schyoti bilan qoplandi.	316800		
	ATBni mol yetkazib beruvchilardan omborga qabul qilindi va o'tkazildi. a)ATB omborga kirim qilindi. b)pul o'tkazildi. <i>17-operatsiyaning jami:</i>	250000 250000 500000		
18.	Soliq summasiqbul qilingan tovarlar uchun hisoblandi.	237500		



## TEST SAVOLLARI

### **Qishloq xo'jaliklari turlariga ko'ra ... bo'linadi**

Dehqon-fermer xo'jaliklari, agrofimlar, shirkat xo'jaliklari  
Chorvachilik, dehqonchilik, agrofimlar,  
Dehqon xo'jaliklari, agrar tashkilotlari, Fermer xo'jalikalari  
Parrandachilik, dehqonchilik, chorvachilik,

### **Qishloq xo'jaliklari sohasiga ko'ra qanday korxonalariga bo'linadi?**

Dehqon xo'jaliklari, agrar tashkilotlari, Fermer xo'jalikalari  
Chorvachilik, dehqonchilik, agrofimlar,  
Dehqonchilik, chorvachilik  
To'g'ri javob yo'q

### **Respublikamiz soliq qonunchiligi xujjatlariga muvofiq qishloq xo'jalik korxonalarini qanday soliqlarni to'laydilar?**

Yagona yer solig'i  
Umum belgilangan barcha soliqlarni  
Yer solig'i, mol-mulk soli'gi, aksiz solig'i, QQS  
Faqat QQS

### **Qishloq xo'jalik korxonalarining qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish bo'yicha qaysi faoliyat turlaridan maxsus litsenziya talab qilinmaydi**

Fermer xo'jaliklari va mikrofirmalar  
Fermer, dehqon va chorvachilik xo'jaliklari  
Faqat dehqonchilik sohasi  
Dehqonchilik va chorvachilik

### **Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobining qaysi shakllaridan foydalanishi mumkin.**

Memorial order yoki jurnal order  
Memorial order, jurnal order va buxgalteriya hisobining registrlari  
Memorial order, jurnal order, soddalashtirilgan shakl va kompyuterlashtirilgan shakl  
Jurnal order, kompyuterlashtirilgan va memorial order shakllaridan

### **Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida nizam nechanchi yilda ro'yhatga olingan?**

2009 yil 5 fevral  
2010 yil 30 avgust  
2008 yil 26 mart  
2012 yil 30 avgust

### **Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan tizimini tashkil etish to'g'risida nizomga muvofiq buxgalteriya hisobi qanday shakllar bo'yicha yurilishi mumkin**

Buxgalteriya hisobining oddiy shakli va kombinatsiyalashgan shakli

Buxgalteriya hisobining oddiy shakli, kombinatsiyalashgan shakli va aralash shakli  
Buxgalteriya hisobining oddiy shakli  
To'g'ri javob yo'q

**Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining xo'jalik operatsiyalari qanday tartibda ro'yhatga olib boriladi?**

xronologik  
sistematik  
Xronologik-sistematik  
kombinatsiyalashgan

**Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobining xo'jalik operatsiyalari qaysi hujjatda olib boriladi?**

Soddalashtirilgan hujjat bo'yicha  
Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish jurnali  
Memorial order  
M-42 shakl

**Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari moddiylikiga ko'ra qanday xarajatlarga bo'linadi?**

Bevosita va bilvosita xarajatlar  
Moddiy va moliyaviy  
Moddiy va moddiy bo'lmagan  
Asosiy va asosiy bo'lmagan

**Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari tannarxga kiritish usuliga ko'ra ... bo'linadi.**

Ijtimoiy  
Asosiy moliyaviy va investitsion  
Moddiy va nomoddiy  
Bevosita va bilvosita

**Dehqonchilik ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy mazmuniga ko'ra xarajatlar qaysi javobda to'liq berilgan?**

Mehnat, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, davr xarajatlari, ustama xarajatlar va boshqalar  
Davr xarajatlari, o'zgaruvcha xarajatlar, bank majburiyatlari, xususiy aksiyalar va boshqalar  
Moddiy, mehnat, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, amortizatsiya va boshqa xarajatlar

## MAVZU № 15. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish

### REJA:

1. Savdo korxonalarining buxgalteriya hisobi sub`ektlari sifatidagi tasnifi, tavsifi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari
2. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalari va uni tashkil qilishning xususiyatlari

### NAZORAT SAVOLLARI

1. Amal qilish xududiga ko`ra savdo faoliyati qanday turlarga bo`linadi?
2. Yurituvchi shaxslarning statusiga ko`ra savdo faoliyati qanday turlarga bo`linadi?
3. Mayda ulgurji savdo deganda nimani tushunasiz?
4. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining vazifalariga nimalar kiradi?
5. Ulgurji va chakana savdo deganda nimani tushunasiz?

### MAVZU YUZASIDAN TOPSHIRIQLAR

#### TOPSHIRIQ - 1.

Savdo korxonasi bir to'plamining narxi 45 ming so'm bo'lgan 10 ta oshxona serviz to'plamini sotib oldi. Xaridning umumiy qiymati-450 ming so'm. To'lov 100 % miqdorida oldindan to'lov tarzida amalga oshirildi. To'plamga ustama 25 % miqdorida belgilandi.

Tovarni sotish narxi bo'yicha hisobini aks ettiruvchi qo'yidagi buxgalteriya o'tkazmalarini schyotlarda aks ettiring.

(ming so'mda)

№	Xo'jalik muomalalari	Summa, ming so'm	Schyotlar korrespondentsiyasi	
			Debet	Kredit
1	10 to'plam serviz qiymati bo'nak tariqasida to'lanadi.	450		
2	Servizlar to'plami kirim qilindi.	450		
3	Bo'nakning hisobga olinishi aks ettiriladi.	450		
4	Kirim qilingan servizlarga savdo ustamasi aks ettirildi.	112,5		

#### TOPSHIRIQ - 2.

Yagona soliq to'lovi to'lovchisi hisoblangan savdo korxonasi (ixtiriy ravishda QQS to'lamaydi) 200 ming AQSH dollari summasida tovarlarni import qilish kontraktini tuzdi. To'lov o'z valyuta mablag'lari hisobidan: bo'nak kontrakt qiymatining 25 % i miqdorida, qolgan summa esa –bojxona xizmatining tovarlar kelib tushganini tasdiqlovchi yozuvlari bilan tovarlarni olib kirish kartochkasi bankka taqdim etilganidan so'ng amalga oshirildi.



Bo'nak to'lash vaqtida dollar kursi 1 AQSH dollari uchun 1317 so'mni, BYUDni rasmiylashtirish va yakuniy hisob-kitob vaqtida 1 AQSH dollari uchun 1326 so'mni tashkil etdi.

Tovarning bojxona qiymati 265 200 ming so'mni (200 000\*1326) tashkil qildi.

Korxonaning tovar importi bilan bog'liq xarajatlari quyidagilardan iborat:

- Bojxona boji (1 stavka chegarasida 10%) 26520 ming so'm (265 200\*0,1);
- QQS (20%)- 58344 ming so'm [(265200+26520)\*0,2];
- Bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'im -530,4 ming so'm;
- Bojxona omborida saqlaganlik uchun xarajatlar – 28,5 ming so'm;
- Transport xarajatlari -300 ming so'm;

Bojxona to'lovlari, jumladan QQS summasi tovarlar import qilinganda QQSto'lovchisi hisoblanmagan korxonadan tovar qiymatiga qo'shiladi.

Natijada tovarlarning xarid tannarxi 350 922,9 ming so'mni tashkil etadi. (265 200+26520+55344+530,4+28,5+300)

Ushbu jarayonni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettiring:

№	Xo'jalik muomalalari	Summa, ming so'm	Schyotlar korrespondentsiyasi	
			Debet	Kredit
1	Tovar etkazib beruvchiga bo'nak to'landi (50 000*1317)	65850		
2	BYUDni rasmiylashtirish vaqtida tovarning kelib tushishi aks ettiriladi (shartnoma qiymati 200 000*1326)	265 200		
3	Tovarni import qilishdagi bojxona boji aks ettiriladi	26 520		
4	Tovarni import qilishdagi QQS aks ettiriladi	58344		
5	Tovarni bojxonada rasmiylashtirish va saqlash bo'yicha xarajatlarni aks ettirish	558,9		
6	Tovarlarni transportda tashish bo'yicha xarajatlar aks ettiriladi.	300		
7	Kurs farqi [50 000*(1326-1317)] bo'nakning hisobga olinishi aks ettiriladi.	450 66 300		
8	Tovar etkazib beruvchiga to'lov aks ettiriladi (150 000*1326)	198 900		

### TOPSHIRIQ - 3.

Savdo korxonasi tovarlarni xarid qilish va sotish bo'yicha quyidagi jarayonlarni amalga oshiradi:

1 oktyabrdagi qoldiq – 100 dona 100 so'm narx bo'yicha	
5 oktyabr	Kirim-50 dona 100 so'm narx bo'yicha
	Xarajat – 60 dona
	Qoldiq – 90 dona
20 oktyabr	Kirim-60 dona 110 so'm narx bo'yicha
	Xarajat – 100 dona
	Qoldiq – 50 dona
28 oktyab	Kirim-80 dona 120 so'm narx bo'yicha
	Qoldiq – 130 dona

Korxonada AVEKO usulini qo'llaydi Aniqqlang:

1. Oy mobaynida kelib tushgan tovarlarning o'rtacha narxi:
2. Qoldiqda qolgan tovarlarning umumiy tannarxi:
3. Sotuvning o'rtacha narxi:

Korxonada FIFO usulini qo'llanganda misolni ko'rib chiqing.

#### TOPSHIRIQ - 4.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi qurilish korxonasi qurilish materiallarini qayta sotish maqsadida sotib oladi. Materiallarni etkazib beruvchiga 60 000 ming so'm to'landi, shu jumladan QQS-10 000 ming so'm. Qurilish materiallarini korxonada bazasiga etkazib berish bo'yicha chet transport tashkilotining xizmati 1 200 ming so'mni, shu jumladan QQS-200 ming so'mni tashkil qildi. SHu hisobot davrida qurilish materiallari 92 000 ming so'mga sotildi, shu jumladan QQS 15 333 ming so'm.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi qurilish korxonasi savdo faoliyati bo'yicha umumbelgilangan soliqlarni, ya'ni daromad solig'i, QQS va boshqa soliqlarni ham to'laydi. Qayta sotish maqsadida xarid qilingan tovarlar bo'yicha QQS summasini korxonada hisobga kiritadi.

Sotilgan tovar qiymati 1 % va 1,5 % stavkalar bo'yicha Pensiya va Yo'l jamg'armalariga hamda 1% miqdorida Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar ob'ekti hisoblanadi.

№	Xo'jalik muomalalari	Summa, ming so'm	Schyotlar korrespondentsiyasi	
			Debet	Kredit
1	Tovar-qurilish materialini xarid qilish aks ettiriladi.	50 000		
2	Xarid qilingan tovar bo'yicha QQSni hisobga kiritish aks ettiriladi.	10 000		
3	Chet tashkilot tomonidan tovarni etkazib berish bo'yicha xarajatlari aks ettiriladi.	1 000		
4	Hisobga kiritiladigan QQS aks ettiriladi.	200		
5	Sotilgan tovarlar tannarxi hisobdan chiqariladi.	51 000		
6	Tovarlarni sotishdan olingan daromad aks ettiriladi.	76 666,7		

7	QQS hisoblab yoziladi.	15 333,3		
8	Sotish hajmidan jamg'armalarga majburiy ajratmalar hisoblab yozildi. 76 666,7*1,5% 76 666,7*1% 76 666,7*1%	115 76,7 76,7		
9	Hisobot davri yakunida 9020 schyotning yopilishi	76 666,7		
10	Hisobot davri yakunida 9010 schyotning yopilishi	51 000		

### TOPSHIRIQ - 5.

Chakana savdo korxonasi 10 to'plam oshxona servizini 1 to'plam uchun 55 ming so'm narx bo'yicha sotdi. Bir to'plam servizning xarid qiymati – 45 ming so'm.

Ushbu jarayonlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettiring:

№	Xo'jalik muomalalari	Summa, ming so'm	Schyotlar korrespondentsiyasi	
			Debet	Kredit
1	Sotilgan serviz tannarxini hisobdan chiqaring	550		
2	Servizlarni sotishdan olingan daromad aks ettiriladi.	550		
3	Sotilgan servizlar bo'yicha savdo ustamasi hisobdan chiqarildi.	100		

### TOPSHIRIQ - 6.

Korxonada tovarlarni sotish chog'ida doimiy xaridorlardan biriga buyurtma qiymatining 10 %i miqdorida chegirma taqdim etdi. U xarid qilgan tovar turkumining realizatsiya qiymati 2 500 ming so'mni, ushbu turkumning xarid qiymati 1500 ming so'mni tashkil etadi.

Savdo korxonasining (QQS to'lovchisi hisoblanmaydi) buxgalteriya hisobida tovarlarning chegirma bilan sotilishini schyotlarda aks ettiring:

№	Xo'jalik muomalalari	Summa, ming so'm	Schyotlar korrespondentsiyasi	
			Debet	Kredit
1	Tovarlarni sotilishidan daromad aks ettirildi	2500		
2	Chegirma aks ettirildi	250		
3	Tovarlarning xarid qiymati hisobdan chiqarildi	1 500		
4	Haridor tomonidan qarz so'ndirildi.	2 250		
5	9050 schyotning yopilishi			

## TEST SAVOLLARI

**Savdo tashkilotining sof tushumi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

moliyaviy natijalar to`g`risida hisobotda;  
buxgalteriya balansida;  
xususiy kapital to`g`risida hisobotda;  
yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

**Savdo tashkilotining hisobot davr sof foydasi qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

moliyaviy natijalar to`g`risida hisobotda;  
buxgalteriya balansida;  
xususiy kapital to`g`risida hisobotda;  
yuqorida keltirilgan hisobotlarda aks ettirilmaydi.

**Savdo tashkilotga buyurtmachilardan kelib tushgan pul mablag`lari qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

pul oqimlari to`g`risida hisobotda;  
moliyaviy natijalar to`g`risida hisobotda;  
xususiy kapital to`g`risida hisobotda;  
buxgalteriya balansida.

**Savdo tashkilotlarida muddati o`tib ketgan debitorlik va kreditorlik qarzlari to`g`risidagi batafsil ma`lumotlar qaysi hisobot shaklida aks ettiriladi?**

alohida hisobot shakli yo`q;  
buxgalteriya balansida;  
moliyaviy natijalar to`g`risida hisobotda;  
pul oqimlari to`g`risida hisobotda.

**Kichik biznes sub`ekti hisoblangan savdo tashkilotlari moliyaviy hisobotni topshiradi:**

har chorakda;  
yil yakuni bo`yicha;  
ikki yilda bir marta.  
har oyda;

**Kichik biznes sub`ekti hisoblangan savdo tashkilotlari topshiradigan moliyaviy hisobot tarkibiga kiradi:**

buxgalteriya balansi;  
xususiy kapital to`g`risidagi hisobot;  
debitorlik va kreditorlik qarzlari to`g`risida ma`lumotnoma;  
pul oqimlari to`g`risida hisobot.

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 48 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabr PQ-3946-sonli "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
6. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. – T.: 13.04.2016.
7. Gadoev E. va boshqalar. Buxgalter uchun amaliy qo'llanma: ikki jildlik. Toshkent NORMA 2010.
8. Абдуллаев Р. Бухгалтерский учет и аудит - Т.: "IQTISOD –MOLIYA", 2010.
9. Xolbekov R. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. TDIU-2011.
10. Masharipov O. Amaliy audit. Darslik./ - T.: "Iqtisod-moliya", 2013.
11. Xolboev D. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma,-T.: "Iqtisod-moliya" 2016.
12. Qo'ziyev I. va boshqalar. «Ichki audit» Darslik T.: "Sharq" 2018 yil.
13. Karimov A., Buxgalteriya hisobi. Darslik.-T.: Iqtisod-moliya, 2019. - 624 b.
14. I.Ismanov, N.Toshmamatov, S.Buzrukhanov. Moliyaviy hisob va hisobot: Darslik – T.: Sano-standart, 2019. - 560 b.
15. B. Isroilov, Buxgalteriya hisobi nazariyasi: Darslik - Toshkent: Tafakkur , 2020. - 240 b.
16. Теория бухгалтерского учета: учебное пособие- Т.: Iqtisodiy-Moliya, 2018. - 200 с.
17. G'ulomova F. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganuvchilar uchun qo'llanma. –T.: "NORMA" nashriyoti, 2010 y.
18. Norbekov D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.:–"Iqtisod-moliya", 2006 y.

### **Internet saytlari:**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.gov.uz](http://www.gov.uz)

[www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)

[www.mf.uz](http://www.mf.uz)

[www.stat.uz](http://www.stat.uz)

**M.SH. MAMATKULOV**

**A.Z. TABAYEV**

**O'rta maxsus professional ta'limning**

**5.32.06.01–Buxgalteriya hisobi va audit kasbi bo'yicha**

# **BUXGALTERIYA HISOBI**

**o'quv amaliyoti uchun**

## **O'QUV QO'LLANMA**

Tashkent 2022